

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI**

**SOTSILOGIYA YO'NALISHI**

**IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI**

**MAMLAKATNI MODERNIZASIIYALASH KONSEPSIIYASINI AMALGA  
OSHIRISHDA MA'NAVIYATNING O'RNI**

## **MALAKAVIIY BITIRUV ISHI**

**Bajaruvchi: Amanqulov Jasur.**

**Ilmiy rahbar: prof.Nabiyev F.**

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.  
Kafedraning 2011 yil \_\_\_ \_\_\_dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga  
tavsiya etildi (bayyonnoma№ \_\_\_).**

**Kafedra mudiri:**

**dots.Jo'rayev L.N.**

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil \_\_\_ \_\_\_dagi majlisida  
himoya qilindi va \_\_\_ foizga baholandi (bayyonnoma № \_\_\_).**

**Samarqand – 2011.**

# **Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini amalga oshirishda ma'naviyatning o'rni.**

## **Kirish**

**I. Mamlakatni modernizatsiyalash – jamiyat taraqqiyotini ta'minlash yo'li.**

**1.Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini mohiyati - adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish.**

**2.Mamlakatni modernizatsiyalashda nazoratga doir bilimning o'rni.**

**II.Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishda ma'naviyatga ehtiyojni ortib borishi.**

**1.Fuqarolik jamiyatini shakllanishi va uni funksiyalari.**

**2.Fuqarolik jamiyati nazoratini amalga oshirishda ma'naviyatning o'rni.**

## **Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi:** Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi huquq va axloq me'yorlariga rioya qilinishi orqaligina ta'minlanishi mumkin. Huquq va axloq normalariga rioya qilinishi esa, mukammal nazorat tizimi bo'lishini taqozo etadi. Ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan nazorat mexanizmini shakllanishida ma'naviyat muhim rol o'ynaydi. Chunki, ma'naviyat odamlarga befarqlik kayfiyatini yuqotib daxldorlik hissini shakllantiradi. Daxldorlik hissi esa nazorat mexanizmini ishlashida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ma'naviyat insonda ichki nazoratni shakllantiradi. Ichki nazorat har bir odamni o'zini o'zi nazorat qilishini ta'minlab o'zgalarni tanqid qilishga sharoit yaratadi. Demak, barcha vaqtlarda odamlarni o'ylantirib kelgan. Ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosini hal qilishga qaratilgan mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini amalga oshirishda ma'naviyat muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, u zamonamiz mohiyati bo'lgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan «Mamlakatimizda demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish» konsepsiyasini ijrosini ta'minlashiga qaratilgan. Ishning dolzarbligini ana shu bilan belgilanadiki, modernizatsiyalash konsepsiyasining asosiy maqsadi bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatish barcha vaqtlarda olimu ulamolarni va davlat rahbarlarini o'ylantirib kelgan eng murakkab va dolzarb muammo bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham insoniyatni uylantirib turgan eng murakkab muammo adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish va uni barqarorligini ta'minlash muammosidir. Hyech mubolag'asiz ushbu muammo insoniyatni keyingi mavjud bo'lishini gumon qilib qo'ygan muammo bo'lib hisoblanadi. Global miqyosdagi ijtimoiy tartib har bir mamlakatdagi ijtimoiy tartibdan tashkil topadi. Shuning uchun ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi bo'lgan mamlakatlar uchun eng dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini mohiyatini tashkil qilgan ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi barcha vaqtlarda donishmand va davlat rahbarlarining o'yantirib kelib ilmiy izlanishlarni obyekt bo'lib kelgan bo'lsa ham muammoga bunday tizimli yondashuv nazardan chetda qolib keldi. Shuning uchun mavzuga doir deyarli barcha izlanishlar asosan yuqoridan amalga oshiriladigan davlatnazoratini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilishga qaratilgan. Nazorat tizimini tarkibiy qismi bo'lgan jamiyat nazorati davlatni e'tibordan chetda qolib keldi va shuning natijasida ilmiy izlanishni obyekt bo'lmay qoldi. Umuman nafaqat jamiyat nazorati balki, umuman nazorat muammosi olimlar tomonidan yetarlicha o'rganilmay keldi. Nazorat davlat siyosatini tarkibiy qismi bo'lishiga qaramasdan siyosatshunos olimlar nazorat faoliyatini ilmiy tarqoq qilishni e'tibordan chetda qolib kelishgan. Hatto nazorat faoliyati siyosatshunoslik fanini obyekt ekanligi ko'pchilik tomonidan yetarlicha anglab olingani yo'q.

**Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:** Mamlakatimizda ijtimoiy fanlarga jumladan, sosiologiya va politologiya fanlariga bo'lgan qiziqish faqat mustaqillikka erishgandan so'ng ortib bordi. Sobiq totalitar tuzum davrida mahalliy aholini siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksalishiga xizmat qiladigan fanlarni o'rganilishiga ataylab yo'l berilmagan. Chunki, bunday fanlar odamlarni siyosiy va huquqiy bilimlar negizida umumiy madaniyatni yuksalishiga olib kelar edi. Umumiy madaniyat yuksak jamiyatni aldash va o'z manfaati yo'lida xizmat qildirish va umuman ----ushlab turish mumkin emas. Chunki, bunday jamiyatni tashkil qilish mahalliy millat siyosati mohiyatini va sosial muammolarni asl sabablarini anglab olgan bo'ladi. Eng muhimi bunday xalq erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi va u har qanday markazdan kelgan topshiriqni mexanik ijrochisi bo'lmaydi. Shuning uchun totalitar tuzum davrida odamlar gigant davlat apparatining muruvatchasiga aylanib qolgan edi. Agar siyosiy va huquqiy bilimlar rivojlantirishda va odamlarni ongiga singdirilganda edi inson muruvatchi bo'lib qolmas edi.

**Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:** Faqat mustaqillik davlatigina o'z

xoxishini erkin bo'lishini ta'minlashdan manfaatdor bo'lishi mumkin. Inson erkin fikrlashi va yashashi uchun u oldin mustaqil bo'lishi kerak. Shuning uchun mustaqillik yillarida sosiologiya, politologiyava ijtimoiy siyosat kabi fanlarni rivojlanishiga va Oliy o'quv yurtlari o'quv dasturiga kiritishga sharoit paydo bo'ldi. Ushbu xususda gapirib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Hayot va ijtimoiy praktikani o'zi jamiyatshunoslar oldida shu muammolarni qo'ymoqda. Buning ustiga, fuqarolarninig siyosiy jarayonda va davlat qarorlarini qabul qilishdagi ishtiroki, demokratik saylov sistemasi sharoitida ommanining siyosiy madaniyati va saviyasin<sup>7</sup>i oshirish masalalari birinchi o'ringa chiqmoqda. Ammo respublikadan birorta ilmiy muassasa ham biz uchun fanning yangi sohasi bo'lgan adabiyotshunoslik muammolarininig o'rganish bilan, afsuski shug'ullanmaydi»<sup>1</sup> deb ta'kidladi. Hozirgi kunda mustaqilliu sharofati bilan siyosiy bilimlarni o'rganish va yoshlarni ongiga singdirish rivojlanib bormoqda.

**Malakaviy bitiruv ishining obykti va predmeti:** Buni siyosatshunoslik fanini izlanish obykti bo'lgan nazorat faoliyati muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlardan ko'rish mumkin. «Malakatni modernizasiya qilish va kuchlim fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratining takomillashtirishning dolzarb masalalari» yuzasidan Rahimjon Hakimov, «Parlament nazorati mexanizmlarining takomillashuvi – qonunlar ijrosi samarasining poydevori» xususida Abdumanno Rahimov, «Davlat byudjeti ijrosi ustidan parlament nazorati: siyosiy partiya fraksiyasininig nazariyasi» to'g'risida, Muxiddin Primov «Fuqarolik jamiyati institutlariga ajratilayotgan davlat mablag'lari ustidan parlament nazorati: tajriba va istiqbollar» mavzuida Olim Abdurahmonov, «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokining kengaytirishning asosiy omillari» mavzuida Jamshid Maqsudov, Nodira Shomansurova, «Jamoatchilik nazorati tizimini yanada takomillashtirish» to'g'risida Ilhom Nosirov, O'zbekiston siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarida jamoatchilik nazoratini ta'minlashning va takomillashtirishi»to'g'risida Farhod

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент, Ўзбекистон, 2011 й 93-94 бет.

Nabiyev<sup>1</sup> va yana boshqa ko'plab mavzularda ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini amalga oshirishda ma'naviyatni o'rnini ilmiy tadqiq qilish siyosiy sosiologik bilimni rivojlantirishda o'z o'rnini ega bo'lib hisoblanadi. Chunki, siyosiy sosioloyni politologiyadan farq qilib jamiyat hayotini faqat siyosiy sohasini emas, balkim siyosiy va nosiyosiy sohalarni sohalarni o'zaro munosabatini o'rganadi. Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasi siyosiy va nosiyosiy sohalarni ya'ni davlat va jamiyatni o'zaro munosabatlarini o'rganishga taqoza etadi. Nega deganda bu konsepsiyani mohiyati bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini shakllantirish davlat va jamiyatni hamkorligiga asoslanadi. Bunday nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'kidlaydigan mexanizmni topi shva uni harakatga keltiruvchi kuchlarni aniqlash modernizatsiyalash konsepsiyasini ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Nazorat mexanizmini harakatga keltiruvchi va uni barqaror ishlab turishini ta'minlaydigan kuch bu ahloqiy tarbiya negizida shakllanadigan yuksak ma'naviyatdir.

## **I. Bob. Mamlakatni modernizatsiyalash – jamiyat taraqqiyotini ta'minlash yo'li.**

### **1. Mamalkatni modernizatsiyalash konsepsiyasini mohiyati - adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish.**

Zamonamiz mohiyati bo'lgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish» konsepsiyasi **adolatli ijtimoiy tartibni** o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini shakllantirishga qaratilgan. Adolatli ijtimoiy tartib jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi insoniyat tarixidagi eng murakkab va eng dolzarb muammo bo'lib qyelmoqda. Barcha vaqtlarda davlat

---

<sup>1</sup> Фуқаролик жамияти. // 2010 йил, 3 сон, 2011 йил 2-сон.

rahbarlari va donishmandlar **qanday qilsak jamiyatda tartib bo'ladi?** degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrda Parlamentning qo'shma majlisida bayon qilingan **mamlakatni modernizasiyalash konsepsiyasi** ham o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ana shu savolga javob topishi urinish bulib hisoblanadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishi murakkab evolyusion jarayon bo'lib, bu maqsadga erishish odamlarning ongu - tafakkuriga demokratik va liberal g'oyalarni singdirilishiga, eng avvalo xalqimizning ma'naviy yuksalishiga bog'liqdir. Insoniyat jamiyatida ma'naviyatni o'rni to'g'risida gapirib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ma'naviyatga shunday ta'rif berdi: **«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarini mezonidir»<sup>1</sup>**. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan jamiyat ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'ladi. Jamiyat ma'naviyati har bir odam ma'naviyatidan tashkil topganidek jamiyatdagi tartib har bir odamdagi tartibdan tashkil topadi. Ma'naviyat insonni o'z ustidan bo'lgan hokimiyatini shakllantiradi va tartibga soladi. Mamlakatni modernizasiyalash har bir fuqaroni modernizasiyalash orqali amalga oshiriladi. Fuqaroni modernizasiyalash deganda bilim va ma'naviyatini zamon talablariga moslashtirishni tushunish lozim. Zamon talabi demokratiyadan, demokratiya esa nazoratdan iborat. Jamiyatdagi nazorat tizimi har bir odamdagi ichki nazoratdan shakllanadi va ichki nazorat qanchalik kuchli bo'lsa, nazorat tizimi shunchalik kuchli bo'ladi.

Oltita ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan **mamlakatni modernizasiyalash konsepsiyasini** **strukturasini** quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

---

1. Каримов.И.А Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент 2008 йил. 19 бет.



Ushbu konsepsiyani asosiy maqsadi mamlakatda ijtimoiy tartibni o'rnatishga

qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan **mexanizmni** shakllantirishdan iborat. Mamlakat davlat va jamiyatdan iborat bo'lganligi uchun mamlakatni modernizatsiyalash strukturasi ikkiga bo'lish maqsadga muvofiq. Bosh maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, farovon jamiyat qurish uchun, eng avvalo, ijtimoiy tartib o'rnatishga mas'ul bo'lgan davlat va jamiyat rivojlanish darajasi zamon talablariga mos bo'lishi kerak. Zamon talabi esa kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga utishdan iborat. Mamlakatni modernizatsiyalash ya'ni davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirish ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan **nazorat mexanizmini shakllantirishga** qaratilgan<sup>1</sup>.

Bu tushunarli bo'lishi uchun, eng avvalo, ijtimoiy tartib nima ekanligini anglab olish kerak. **Ijtimoiy tartib bu huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlanaganlik holatidir.** Insoniyat jamiyatida tartib bo'lishi uchun ikkita ijtimoiy regulyator ya'ni huquq va axloq o'ylab chiqilgan. Odamlar majmuidan iborat bo'lgan insoniyat jamiyatida ehtiyojlarni qondirish, manfaatlarni ifodalash jarayonida ular o'rtasida tabiiy ravishda qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar kelib chiqadi. Agar ana shu ziddiyatli munosabatlar huquq va axloq me'yorlari orqali murosaga solinib tartibga olinmasa insoniyat jamiyati son-sanoqsiz ziddiyatlar va kurashlardan iborat bo'ladi va oxir oqibatda halok bo'ladi. Shuning uchun insonni harakati ostida o'zi anglamagan holda o'zini qirg'in qilish xavfi yashirinib yotadi degan fikr mavjud. Demak, bunday ayanchli holatni oldini olish uchun odamlar o'rtasidagi munosabatni tartibga oladigan huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishni ta'minlaydigan nazorat tizimi shakllangan bo'lishi kerak.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib o'rnatilishi nazorat tizimiga bog'liq ekan, asosiy e'tibor nazoratni kuchli qilishga qaratilishi lozim. Buning uchun, eng avvalo, nazorat o'zi nima ekanligini anglab olish kerak. **Nazorat bu huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishni ta'minlash orqali jamiyatda tartib o'rnatadigan mexanizm faoliyatidir.** Nazorat mazmunan ichki va tashqi, shaklan yuqoridan va quyidan bo'ladi. Ichki nazorat har bir odam o'zini-

---

<sup>1</sup> Одилқориев Х. Парламент назоратининг моҳияти ва асосий шакллари //Парламент назорати: назария ва амалиёт масалалари. Илмий-амалий семинар материаллари. - Тошкент: 2005. –Б.25-37.

o'zi nazorat qilishini anglatadi, tashqi nazorat huquq va axloqqa rioya qilishni davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilishni anglatadi. Yuqoridan nazoratni davlat amalga oshirsa, quyidan jamiyat amalga oshiradi va ular nazorat tizimini tarkibiy qismini tashkil qiladi. Mamakatimizda shakllanib borayotgan **nazorat tizimini strukturasi**ni jamiyat siyosiy hayotini hozirgi manzarasidan kelib chiqib, quyidagicha tasavvur qilish mumkin:



Nazorat tizimini strukturasi bir-biriga gorizontal va vertikal bog'liq bo'lgan bir qancha elementlardan iborat bo'lgan barqaror yaxlitlik bo'lib hisoblanadi va uni elementlardan birini ishlamasligi tizimni zaiflashuviga olib keladi.

Nazorat tizimini samarali ishlashi, eng avvalo, odamlardagi daxldorlik hissiga bog'liq. Agar odamlarda **daxldorlik hissi** bo'lmasa va ular jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashashsa, bunday jamiyatda nazorat tizimi yaxshi ishlamaydi. Chunki, har qanday tizim ishlab turishi uchun, uni tashkil qilgan

elementlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi va bir element ikkinchisiga ta'sir etib turishi kerak bo'ladi, aks holda tizim ishlamay qoladi. Masalan, nazorat tizimini asosiy vositasi bo'lgan deputatlar korpusi o'zini nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun ularni o'zi nazorat ostida bo'lishi kerak. Deputatni elektorat nazorat qilishi uchun esa unda ichki nazorat bo'lishi kerak. Ichki nazorat daxldorlik hissini shakllantiradi va xuddi shunday daxldorlik hissi ichki nazoratni kuchaytiradi. **Insonda befarqlik yuqolib daxldorlik hissi shakllanishi ma'naviyat bilan belgilanadi.** Axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan ma'naviy yuksaklik insonni o'z ustidan bo'lgna hokimiyatini shakllantiradi. O'z ustidan hokimiyatga ega bo'lgan odam o'z ehtiyoj va manfaatlarini jilovlay oladi va o'zini o'zi nazorat qila oladi. Va aksincha, o'z ustidan hokimiyatga ega bo'lmagan odam o'zini o'zi nazorat qila olmaydi ya'ni unda ichki nazrat kuchsiz bo'ladi va u o'z ehtiyojlari quliga aylanib qoladi.

Inson bironi nazorat qilish uchun oldin o'zini nazorat qila olishi kerak, yoki bironi boshqarish uchun oldin odam o'zini boshqara olishi kerak. Boshqarish va nazorat qilish uchun esa, hokimiyat kerak. **Eng kuchli hokimiyat bu insonning o'zini ustidan bo'lgan hokimiyatidir.** Bu esa, ma'naviyat orqali ta'minlanadi. Buni tushunish uchun ma'naviyatni mohiyatini anglab olish kerak. Xo'sh, ma'naviyatni mohiyati nima? **Ma'naviyatni mohiyati - moddiy va ma'naviy boylikka bo'lgan munosabatda ma'naviy boylikni ustun qo'ya oladigan qalbiy hususiyatdir.**

Insonni ma'naviyatini yuksaltirish uchun ma'naviyatni mohiyatini va ta'rifini bilish yetarli emas. Buning uchun odamzod ma'naviyatni o'ziga tasavvur qila olishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovni 2008 yilda nashr qilingan «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli asaridagi ma'naviyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqib quyidagi **ma'naviyat strukturasi**ni tasavvur qilish mumkin.



Inson o'z o'stidan hokimiyatga ega bo'lishi uchun u nimadandir qurqishi kerak, buning uchun unda **iymon** bo'lishi kerak. Inson xalol va haqguy bo'lishi kerak, buning uchun esa, unda **viydon** bo'lishi kerak. Inson o'z nafsini tiya olishi kerak, buning uchun unda **iroda** kuchli bo'lishi kerak. Insonda iymon, viydon va iroda kuchli bo'lishi uchun uni qalbi pok, ruhi kuchli bo'lishi kerak. Demak, ma'naviyat deganda markazda ruh turgan, uni atrofida qalb shakllangan va ularni negizida iymon, viydon, iroda yuzaga kelgan uch halqadan iborat doira strukturasi tasavvur qilish kerak. Irodasiz odam hayotda uchraydigan muammolarga qo'l siltab jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashaydi va aksincha, irodasi kuchli odam hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishga qodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, azaldan ro'y berib kelayotgan adolat bilan razolat o'rtasidagi kurashda kimni g'alaba qozonishi odamlardagi daxldorlik hissiga bog'liq. Agar odamlar befarq bo'lishsa, bu kurashda razolat g'alaba qozonadi, chunki adolat yordamga muhtoj, razolat esa tajovuzkor. Shuning uchun adolatni musichaga, razolatni maynaga qiyoslashadi. Irodasi kuchli odam bunday kurashda befarq bo'lmasdan adolatni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'ladi. **Adolat g'alaba qozongan muhit sog'lom muhitni, sog'lom muhit esa, ijtimoiy tartibni anglatadi.** Demak, ijtimoiy tartibni o'rnatilishi jamiyatni ma'naviy yuksakligi bilan belgilanadi, chunki ma'naviyat nazorat manbai bo'lgan ichki nazoratni shakllantiradi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Набиев Ф.Х. Ўзбекистон сиёсий партияларнинг дастурий ҳужжатларда жамоатчилик назоратини таъминлаш ва такомиллаштириш. // Фуқаролик жамияти. 2010 йил, 3-сон.

Jamiyat ma'naviyati yuksalishi uchun **ma'naviyat qadrlanishi lozim**. Ma'naviyat qadrlanishi deganda, eng avvalo, ma'naviyat ahli qadrlanishini tushunish lozim. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat ahlini mehnati qadrlanishi lozim. Jamiyatda jismoniy mehnat qanday qadrlansa, aqliy mehnat ham shunday qabul qilinishi lozim. Ma'naviyatni faqat fidoyilikka asoslanishi bozor munosabatlari qonuniyatlariga va umuman adolat tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Inson shunday mavjudotki, u faqat boylikka intilib yashaydi. Agar jamiyatda faqat moddiy boylik qadrlansa, odamlar moddiy boylikka intilib yashaydilar. Ma'naviy boylikka intilish uchun **g'oya** aqliy mehnat mahsuli sifatida tan olinishi va qadrlanishi ya'ni **intellektual mulk tushunchasi** shakllangan bo'lishi lozim.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa **jamiyatni intellektual elita va'ni bilim va ma'naviyat boshqarishi** kerak. Huquqqa rioya qilish, ko'proq, bilim bilan bog'liq bo'lsa, axloqqa rioya qilish ko'proq ma'naviyatga bog'liq. Insoniyat jamiyatini hozirgi bosqichga kelib ma'naviyatni roli oshib bormoqda. Bundan o'n ikki asr oldin hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy «Odamlarning najoti faqat bilim va undan boshqasi bo'lmagay» deb ta'kidlagan edi. O'tgan davr mobaynida insoniyat jamiyatida shunday o'zgarishlar bo'ldiki, endi odamlarni najoti faqat bilim deb aytish yetarli bo'lmay qoldi. Endi **odamlarni najoti bilim va ma'naviyatda** deb aytish to'g'riroqdir. Insonni bilimi miyasida shakllansa, ma'naviyati qalbida shakllanadi. Agar bilim kuchli bo'lsayu, ma'naviyat qashshoq bo'lsa, bunday bilim razolatga xizmat qiladi. Demak, uyg'unlikda rivojlangan bilim va ma'naviyat ijtimoiy tartibni ta'minlashi mumkin. Insoniyat jamiyatida bilim va ma'naviyatni o'rnini quyidagicha tasvirlash mumkin.





Jamiyat tararqqiyotida bilim va ma'naviyatni ahamiyatini anglab olish uchun

muammoni tarixiga nazar solish kerak. Yuqorida ta’kidlaganmizdek barcha vaqtlarda donishmandlar qanday qilsak jamiyatda tartib bo’ladi? degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. Qadimgi yunon faylasufi Platon o’zini «Davlat» nomli asarida **ijtimoiy tartibni o’rnatilishi uchun jamiyatni intellektual elita va’ni bilim boshqarishi kerak** deb yozgan. Sharq Aristoteli deb tanilgan mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiyning asarlarida **jamiyatda tartib o’rnatish uchun ma’naviyatga alohida e’tibor qaratiladi**. Qadimgi Xitoy mutafakkiri **Konfusiy ta’limotida jamiyatda tartib o’rnatadigan tamoyillar ichida ma’naviyat ustunlik qilgan**. Xullas, mashhur donishmandlar jamiyatda tartib o’rnatishni bilim va ma’naviyatda ko’rishgan. Chunki, **bilim tabiat, jamiyat va tafakkur qonuniyatlarni ochib berib ularni inson manfaatiga xizmat qildirish imkoniyatini beradi. Ma’naviyat esa, ana shu bilimdan oqilona foydalanib uni ezgu maqsadlarga xizmat qilishini ta’minlaydi**<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada samarali kilish quyidagi omillarga bog’liq.

-Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada samarali qilish ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kadrlarning bilim va malakasiga bog’liq. Ma’naviyatni targ’ib qilayotgan odamning o’zida ma’naviyat yuksak bo’lishi va u ma’naviyatni mazmun - mohiyatini oddiy jonli so’zlar bilan tushuntira olishi lozim.

-Bundan tashqari ma’naviyatni targ’ib qilishda Ommaviy Axborot Vositalaridan samarali foydalanish kerak. Odamlar dunyoqarashiga ko’ra ikki guruhga bo’linadi ya’ni kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi (I.A.Karimov). Televideniyeda odamni kimni izmida yurganligini o’rganadigan va uni to’g’ri yo’lga boshqaradigan «**MOTIV**» mavzuidagi ko’rsatuvni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko’rsatuv odamlarni ma’naviyatini yuksaltirib to’g’ri yo’ldan yurdiradigan motivlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Набиев Ф.Х. Юксак маънавият ва етук сиёсий маданият. «Махалла», 2010 йил, 29 апрель.

-Yana bir taklif, ma'naviy-ma'rifiy ishlar savdo sohasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va ushbu soha tarbiya jarayonidan ozroq chetda qolganligi uchun savdo tizimida ma'naviy tarbiya jarayonini kuchaytirish lozim. O'tgan 2010 yilning boshlarida viloyatning Urgut tumanida bo'lgan bozordagi tartibsizliklar ma'naviy tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yilmaganligining oqibatidir.

- Ma'naviyat mohiyatining markazida ruh tushunchasi yotganligi va ruh diniy tushuncha ekanligi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda diniy tarbiyadan kengroq foydalanishni taqozo etadi. Odamlar faqat qonundan qo'rqib emas, balkim oxiratda do'zax azobidan qo'rqib to'g'ri yo'ldan yurishga harakat qilishlariga undash lozim.

-Sud huquq organlari tizimida ham ma'naviy targ'ibotni yanada jonlantirish maqsadga muvofiqdir. Sud xokimiyatida ma'naviyatni yuksaltirish ichki nazoratni shakllantirsa, jamiyat ma'naviyatini yuksalishi esa tashki nazoratni ya'ni jamoatchilik nazoratini shakllantiradi. Ana shu ichki va tashki nazoratning mavjudligi sud xukmining adolatligining kafolati buladi.

- Insonni tugri yuldan yurishini ta'minlaydigan nazorat tizimini samarali kilish uchun nazoratga doir bilimni odamlar ongiga singdirishga xizmat kiladigan «**Ijtimoiy nazorat**» nomli ukuv kursini oliy ta'lim tizimi ukuv dasturiga kiritish maksadga muvofikdir.

-Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishni eng muhim omili bu jamiyatda ma'naviyatning qadrlanganligidir. Shuning uchun ma'naviyat namoyandalarini ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qadrlash chora-tadbirlari ko'rish lozim.

-Ma'naviyatni yuksaltirishda muhtaram Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asari dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Asarni yozilishi mamlakatni ma'naviy qashshoqlik natijasida halokatga olib kelish xavfi yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan to'g'ri yo'lni topib chiqib ketishga xizmat qilmoqda. Ma'naviyat muammosini global xarakterda ekanligini inobatga olsak asar muallifini nafaqat bir mamlakat miqyosidagi balkim global miqyosidagi lider ekanligini ko'rsatib turibdi. Ushbu asrdagi ezgu goyalarini odamlarni ongi va kalbiga singdirish asosiy vazifa bulishi lozim<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Набиев Ф.Х. Юксак маънавият ва етук сиёсий маданият. «Маҳалла», 2010 йил, 29 апрель.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti tartib ekanligini va tartibni ta'minlash uchun jamiyatni bilim va ma'naviyat boshqarishi kerakligini olimu-ulamolar, donishmandlar va tariqat pirlari allaqachonlar anglab yetishgan. Hozirgi kunda ma'naviyat targ'ibotchilarini vazifasi ana shu oddiy haqiqatni odamlarni ongu qalbiga singdirishdan iborat. Chunki har bir odam o'z aqli bilan mustaqil ravishda ushbu haqiqatni anglab olish deyarli mumkin emas. Insoniyat jamiyati shunday yaralganki, aholining ma'lum bir oz qismi o'zgaralar manfaatini o'ylab yashaydi, qolganlar esa ana shu o'zgaralar manfaatini o'ylab yashayotgan, ozchilikga ergashib yashashi lozim. Buning uchun ozchilik ko'pchilikni qalbiga ma'naviyatni singdira olishi lozim. Bu esa faqat ta'lim-tarbiya va ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni yanada ko'chaytirish orqali ta'minlanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida belgilab berilgan, **ijtimoiy tartibni** o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlab turishi **nazorat mexanizmini** shakllantirishga, nazorat mexanizmi esa, **jamiyat ma'naviyatini yuksalishiga boqliq**. Aniqroq qilib aytganda bilim va ma'naviyati yuksak jamiyatgina ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodirdir.

## **I. 2. Mamlakatni modernizatsiyalashda nazoratga doir bilimning o'rni.**

O'zbekiston tanlagan demokratik taraqqiyot yo'li mukammal nazorat tizimini taqozo etadi. Chunki demokratiya hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishini va nazorat qilinishini anglatadi. Bundan tashqari jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi nazorat tizimi orqali ta'minlanadi. Mukammal nazorat tizimini shakllantirish uchun odamlarda

---

nazorat to'g'risida, uni mazmuni, shakllari va amalga oshirish vositalari to'g'risida bilim bo'lishi kerak. Bunday bilim o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uni shakllanishi uchun ta'lim tizimida ijtimoiy nazoratni mazmun mohiyatini ochib beradigan o'quv kurslari kiritilishi lozim. Nazorat tizimini dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 27 yanvarda parlamentning qo'shma majlisidagi ma'ruzalaridan kelib chiqadi. Ma'ruzada asosiy e'tibor nazorat masalalariga bag'ishlangan bo'lib jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoni muqarrarligini ta'minlash mukammal nazorat tizimini taqozo etishi ta'kidlangan. Nazorat tizimi ishlamagan joyda tartib bo'lmaydi. Bu boradagi takliflarni davom ettirib, muhtaram Prezidentimiz 2010 yil 12 noyabrda Parlamentni qo'shma majlisida nazorat tizimini ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish zarurligini takidladilar. Buni ma'ruzada mexanizm so'zi bir emas, ikki emas, balkim 20 marotiba ishlatilganligidan ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida nazorat mexanizmni qanchalik muhimligini ko'rsatib turibdi.

Bosh maqsadimiz bo'lgan ozod, obod va farovon jamiyat qurish, eng avvalo, jamiyatda **tartib** o'rnatilishga bog'liq. Shuning uchun barcha vaqtlarda donishmandlar qanday qilsak jamiyatda tartib o'rnatiladi degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. Ushbu savolni javobini topish hozirgi kunda ham siyosatshunoslik fanini dolzarb muammolaridan bo'lib hisoblanadi. Buyuk donishmandlar ya'ni Platon, Aristotel, Farobiy va boshqalar o'z asarlarida ana shu savolga javob olishga intilishgan. Aytaylik, Platon o'zining «Davlat» nomli asarida jamiyatda tartib o'rnatish uchun jamiyatni **intellektual elita** boshqarishi kerak deb yozadi. Boshqacha qilib aytganda jamiyatni bilim boshqarishi kerak. Agar jamiyatni bilim boshqarmasa o'z-o'zidan jamiyatni pul boshqara boshlaydi. Pul boshqargan jamiyatda tartib bo'lmaydi va bunday jamiyat oxir-oqibatda barbod bo'ladi. Xo'sh, nima uchun jamiyatda tartib bo'lishi uchun jamiyatni bilim boshqarishi kerak? Chunki bilim insonga oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi. Oldindan ko'ra bilgan odam xatodan o'zini asraydi. Shuning uchun mashhur faylasuflardan biri **bilishdan maqsad oldindan ko'ra bilish, oldindan ko'ra**

**bilish esa harakat qilish uchun** deb yozib qoldirgan. Bilim insonga jamiyatda tartib o'rnatish uchun ikkita ijtimoiy regulyatorni, ya'ni **huquq va axloqni** o'ylab chiqish imkonini berdi. Ular odamlar o'rtasidagi munosabatni **murosaga solish** va kelishtirish orqali jamiyatda tartib o'rnatadi. Agar odamlar o'rtasidagi munosabat huquq va axloq vositasida murosaga solinmasa, jamiyat son-sanoqsiz ziddiyat, qarama-qarshiliklar va urushlardan iborat bo'lib bunday jamiyat oxir-oqibatda xalok bo'ladi. Chunki, odamlarning manfaatlari, qiziqishlari xilma-xil bo'lib, ularni qondirish jarayonida **tabiiy ravishda ziddiyatlar kelib chiqadi**.

Insoniyat bilim asosida jamiyatda tartib o'rnatadigan ijtimoiy regulyatorlar, ya'ni huquq va axloqni o'ylab chiqqan ekan, asosiy e'tibor ana shu ijtimoiy regulyatorni ishlab turishi va unga rioya qilishni amalda ta'minlashga qaratilishi kerak bo'ladi. Jamiyatni ilm boshqargan taqdirdagina huquq va axloqqa rioya qilish ta'minlanishi mumkin. Chunki, unga rioya qilish uchun mukammal **nazorat tizimi** shakllangan bo'lishi kerak. Bunday nazorat tizimini shakllanishi ham ilmiy asosda ta'minlanishi mumkin. Jamiyatda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, u huquq va axloqqa rioya qilishni amalda ta'minlashga qodir bo'lsin. Ushbu masala yuzasidan gapirib, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov yangi shakllangan Oliy Majlisning qo'shma majlisida ma'ruza qilib asosiy e'tiborni ijroiya hokimiyat ustidan nazorat tizimini takomillashtirishga qaratib «Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari – Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa – bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat tomonidan markazda, hokimlar tomonidan esa joylarda qanday bajarayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatishdan iboratdir»<sup>1</sup> deb ta'kidladilar. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga intilayotganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda jahon moliyaviy inqirozini O'zbekistonda nisbatan yumshoqroq o'tayotganligini sababi davlat boshlig'ining ilmiy salohiyatining natijasi ekanligini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Muhtaram Prezidentimizni jahon moliyaviy inqiroziga bag'ishlangan asarlarini birinchi qismi «Jahon

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш - устувор мақсадимиз. Халқ сўзи. 2010 йил 27-январ, 3-бет.

moliyaviy inqirozini O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uni oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar» deb nomlanishi ham muallifni ilmiy salohiyatini darajasini yaqqol ko'rsatib turibdi. Boshqacha qilib aytganda asar muallifi iqtisodiy-moliyaviy hayotga ilmiy asosda yondashganligi tufayli oldindan ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Ijtimoiy hayotni barcha sohalarini ilmiy asosda boshqarish jamiyatdagi voqeya-hodisalarni oldindan ko'ra bilish imkoniyatini berib xato qilmasdan to'g'ri harakat qilishni ta'minlaydi. Eng muhimi jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini shakllaninishi va samarali ishlashini ta'minlaydi. Chunki, ilm jamiyat taraqqiyotining muhim sharti tartib ekanligini va tartib o'rnatish uchun esa nazorat tizimi uzilishsiz ishlab turishi kerakligini anglab olish imkoniyatini beradi. Ilmi yetuk odam nazoratsiz jamiyatda tartib o'rnatib bo'lmasligini biladi.

Xo'sh, nazorat o'zi nima? Nazorat deganda jamiyatda tartib o'rnatadigan mexanizm faoliyati tushuniladi. Bu mexanizm jamiyatda huquq va axloq asosida qabul qilingan cheklovlarga, shartlarga rioya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, **nazorat bu huquq va axloq asosida qabul qilingan cheklovlarga, shartlarga rioya qilishni ta'minlash orqali jamiyatda tartib o'rnatadigan mexanizm faoliyatidir**<sup>1</sup>. Bunday shartlarga, cheklovlarga rioya qilishni buzulishi ijtimoiy tizimni faoliyat olib borishiga zarar yetkazadi. Ijtimoiy nazoratni asosiy obyektlari huquq va axloq bo'lib hisoblanadi va uni takomillashtirish nazorat va nazorat tizimi degan tushunchalarni chuqurroq anglab olishni talab etadi. Nazorat mazmuniga ko'ra ichki va tashqi, shakliga ko'ra esa yuqoridan va quyidan bo'ladi. Ichki nazorat har bir odam o'zini xulqini o'zi nazorat qilishini anglatadi va bu ma'naviyat orqali ta'minlanadi. Ma'naviyati yuksak odamda ichki nazorat kuchli bo'ladi. Shu o'rinda yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini anglab olish mumkin. Buning uchun oldin boshqa bir savolni javobini berish kerak. Ya'ni, qanday hokimiyat eng kuchli hokimiyat? degan savolni. **Eng kuchli hokimiyat bu insonning o'z ustidan bo'lgan hokimiyatidir.** Hokimiyat bu kuch. Kuch esa

---

<sup>1</sup> Қиёмов М. Қонунчилик назорати: адолатли ва мақбул йўл бўлгани боис муҳим аҳамиятга эга// Жамият. - 2010. – 9 апрель

ma'naviyat orqali shakllanadi. Ma'naviyat inson irodasini kuchli qilib ichki nazoratni mustahkamlaydi. Ma'naviyati yuksak odamda o'zini nazorat qilish imkoniyati kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham ma'naviyat – yengilmas kuch deb ta'rif berilgan. Tashqi nazorat davlat va jamiyat tomonidan huquq va ahloq vositasida amalga oshiriladi. Nazoratni yuqoridan davlat amalga oshirsa, quyidan fuqarolik jamiyati amalga oshiradi.

Nazorat to'g'risidagi fikrlarimiz mukammal bo'lishi uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek nazorat tizimi degan tushunchani anglab olishimiz lozim. Nazorat tizimi deganda davlat va fuqarolik jamiyatiga tegishli o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha nazorat vositalarining yaxlitligini tushunish lozim. Agar shu tizimdagi biror-bir element yoki mexanizm ishlamasa bu tizimni buzulishiga yoki ishlamasligiga olib keladi. Hozirgi kunda respublikamizda jamoatchilik nazoratining uchta asosiy nazorat vositasi shakllanmoqda. Bular deputatlar korpusi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar bo'lib, ular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yaxlit tizimni tashkil qiladi. Nazorat tizimi elementlari o'rtasida nazoratni amalga oshirish borasida ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi lozim. **Nazorat tizimi xar bir jamoada tartib urnatish orkali jamiyatda tartibni ta'minlaydi.** Xar bir jamoada tartib urnatilishi xukuk va axloqqa rioya qilish ta'minlanib soglom muxit shakllanishi bilan bog'liq. Soglom muxit deganda adolat bilan razolat urtasida kurash ketganda oxir okibatda adolat galaba kuzonadigan muxit tushuniladi. Buning uchun eng avvalo insonning ichki dunyosida adolat galaba kuzonishi kerak. Adolat esa munosiblikni ya'ni mexnatga yarasha xak, jinoyatga yarasha jazo va insonni jamiyatdagi axamiyati bilan mavkei urtasidagi munosibligini anglatadi. Nazorat tizimi bircha jamoalarda ana shu munosiblikni ta'minlashga karatilishi lozim.

Nazorat tizimini tarkibiy qismini jamoatchilik nazorati tashkil qiladi. **Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda siyosiy partiyalar alohida ahamiyatga ega.** Chunki ular ham davlatga, ham fuqarolik jamiyatiga daxldor siyosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar o'z dasturlari va saylov oldi platformalari asosida jamoatchilik nazoratini

amalga oshirishga harakat qilishmoqda. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston liberal - demokratik partiyasining dasturi ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning muhim muammolarini ko'tarib chiqishni, kishilarni o'ylantirayotgan barcha muammolarni jamoatchilik muhokamasiga havola etishni, hokimiyat va boshqaruv tizimi faoliyati hamda qabul qilayotgan qarorlariga tanqidiy va xolisona baho berishni ko'zda tutgan.

Jamoatchilik nazorati asosiy e'tiborni jamiyatga tartib o'rnatishga xizmat qiladigan **qonunga rioya qilishni nazorat qilishga** qaratishi lozim. Shuning uchun UzLiDePsi jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, inson huquq va erkinliklarini himoya etishni huquqiy kafolatlarini yaratishga har taraflama ko'maklashish vazifasini o'z dasturida belgilab qo'ygan. Dasturda partiya davlat organlari ustidan samarali jamoatchilik nazorati tizimini shakllantirish, ko'p sonli nazorat organlarini qisqartirish, mansabdor shaxslar orasida korrupsiya va lavozimni suiste'mol qilish hollariga qarshi izchil chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshiradi deb qayd qilingan.

Hozirgi kunda siyosiy partiyalar o'zlarini nazorat funksiyalarini amalga oshirishda imkoniyatlaridan to'liq foydalanishayotgani yo'q. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan siyosiy partiyalar o'z bilim va tajribalariga munosib darajada nazorat funksiyalarini amalga oshirmoqdalar. Samarqand viloyatida UzLiDeP si jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nisbatan faollik ko'rsatmoqda. Partiyaning Samarqand viloyati kengashi faoliyatida nazorat funksiyasini amalga oshirish borasida jiddiy ijobiy o'zgarishlarga erishilmoqda. Masalan viloyat kengashidagi partiya deputatlik guruhi boshqa partiyalar guruhlaridan farqli ravishda birinchi bo'lib, sessiya kun tartibiga viloyat ijtimoiy iqtisodiy hayotiga taalluqli masalani mustaqil ravishda tayyorlab olib chiqishga va amalda uni ijrosini ta'minlashga erishdi. Natijada Samarqand shahrida 2009 yilda 200 ta va 2010 yilning may oyidan boshlab yana qo'shimcha 195 ta ISUZU avtobuslari shahar aholisiga transport xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari UzLiDeP siyosiy kengashi qoshida tuzilgan tadbirkorlar va

ishbilarmonlarni qo'llab-quvvatlash markazi nodavlat-notijorat tashkiloti tomonidan 2009 yilda Ishtixon tumanida 30 dan ortiq, Pastdarg'om tumanida 20 dan ortiq fermer xo'jaligi rahbarlari manfaatlari nazorat funksiyalari orqali himoya qilindi. Partiya uzini nazoratini amalga oshirishi uchun vitloyat kengashining barcha deputatlariga axolini kabul kilish uchun deputatlik xonalarini tashkillashtirishga xar taraflama yordam kursatdi. Endi ana shunday deputat xonasi barcha tuman deputatlarida bulishiga erishishga xarakat kilinmokda. Bu esa uz navbatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat kiladi<sup>1</sup>.

Siyosiy partiyalar nazoratni amalga oshirishlari uchun fuqarolik jamiyati institutlari bilan va eng avvalo o'zini-o'zi boshqarish organi mahallalar bilan hamkorlik qilishlari lozim. Bu ishda ommaviy axborot vositalar va partiyaviy nashrlar hamkorlikni ta'minlovchi bog'lovchi xalqa bo'lib xizmat qilishlari kerak. **Jamoatchilik nazoratini shakllantirishning muhim sharti ijtimoiy fikr bo'lib hisoblanadi.** Shuning uchun siyosiy partiyalar islohotlarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolar to'g'risida keng jamoatchilikka ma'lumot berib ijtimoiy fikrni shakllantirishlari lozim.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-UzLiDeP sining saylov oldi dasturida partiya ijroiya hokimiyat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda O'zbekiston respublikasining qonunlarida siyosiy partiyalar uchun yaratib berilgan huquqlardan to'liq foydalanishga intilishi ta'kidlangan. Partiya hujjatida ijroiya hokimiyatning rahbarlik tuzilmalariga o'z a'zolarini tavsiya etish va o'z deputatlari orqali ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish belgilangan. Partiyaning saylov oldi dasturida fuqarolik jamiyati institutlarining va eng avvalo o'zini-o'zi boshqarish organi mahallani maqomini ko'tarish, rolini oshirish vazifalari belgilangan bo'lib bu jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga ular o'rtasida hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yukorida ta'kidlaganimizdek nazorat tizimini muxim elementi jamoatchilik nazorati bulib unda siyosiy partiyalar xal kiluvchi rol uynaydilar. **Jamoatchilik nazorati vositalarini ishlashi eng avvalo quyida nazoratning mavjudligi bilan**

---

<sup>1</sup> Тadbirkorлар ва ишбилармонлар ҳаракати УзЛиДеП Самарқанд вилоят кенгашининг 2009 йил ҳамда 2010 йил биринчи чорак ҳисоботидан.

**belgilanadi.** Agar quyida, ya'ni boshlang'ich partiya tashkilotlarida, mahallalarda nazorat funksiyasi amalga oshirilmasa boshqa bo'g'inlarda ham nazorat zaiflasha boradi. Nazoratni amalga oshirish uchun respublikamizda barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Aytaylik 2008 yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarni rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy Qonun siyosiy partiyalarni nazorat funksiyasini amalga oshirishda huquqiy asos bo'lib hisoblanadi. Bu boradagi asosiy muammo odamlardagi **befarqlik kayfiyatidir.** Shuning uchun «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi uz dasturi va saylovoldi platformasida asosiy e'tiborni milliy kadriyatlar negizida ma'naviyatni yuksaltirib **daxldorlik xissini** shakllantirishga karatmokda. Odamda daxldorlik hissi shakllanishi uchun u o'ziga men kimning izmida ya'ni Shayton yoki Rahmon izmida yuribman degan savol bilan murajaat qilishi kerak. Muxtaram Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarida «Kimdir Raxmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi»<sup>1</sup> deb ta'kidlaganlar. Hyech kim o'zini shayton izmida yuribman deb aytmaydi, lekin befarq bo'lib yashaydi. Befarqlik esa odamni Shayton izmida yurganligini anglatadi. **Demak, odamlarda daxldorlik hissini shakllanishi nazorat tizimini takomillashuvining muhim sharti bo'lib hisoblanadi.**

Nazorat asosiy e'tiborni qonunga va axloqqa rioya qilishga qaratishi lozim. Qayerda qonun buzilishi, axloq buzilishi holatlari namoyon bo'lsa, deputatlar, siyosiy partiyalar va mahallalar o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. Qonunchilik palatasidagi deputatlar fraksiyasi ijroiya hokimiyatni qonunga rioya qilishini va mahally kengashdagi deputatlar guruhi esa joylardagi ijro hokimiyatini qonunga rioya qilishini qat'iy nazorat qilib borishlari lozim. O'z nazorat funksiyasini amalga oshira olmaydigan **deputatlarni chaqirtirib olish mexanizmini ishlab turishini ta'minlash nazorat tizimini kuchayishiga xizmat qiladi.** **Demokratik jamiyatda nazorat tizimini ahamiyatini demokratiya mohiyatidan kelib chiqib anglash lozim.** Demokratiya asosan ikki elementni

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. Т. 2008 й 23 –бет.

yaxlitligidan iborat. Birinchisi, hokimiyat xalq tomonidan shakllanishi, ikkinchisi, hokimiyat xalq tomonidan nazorat qilinishidir. Demokratiya – hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishini va nazorat qilinishini anglatadi. Agar xalq hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etsayu nazoratda ishtirok etmasa bu oxlokратиya yoki oligarxiyaga aylanib ketadi.

Agar xalq uz nazorat funksiyasini amalga oshirishda ishtirok etmasa, bu uni **siyosiy madaniyatini pastligidan dalolat beradi.** Jamiyatda demokratiya sharoitida yashay oladigan, fuqarolik pozisiyasi shakllangan va siyosiy madaniyati yuksak shaxslar bo'lgan taqdirdagina demokratiya amal qiladi. Aks holda demokratiya namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun mashhur Aristotel o'zini «Siyosat» nomli asarida demokratiyaga salbiy baho berib, uni boshqaruvni yomon shakli deb yozib qoldirgan. Chunki Aristotel zamonida ya'ni bundan qariyb 2,4 ming yil oldin odamlarni siyosiy madaniyati past bo'lgan. Lekin Aristotelning so'zlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Demak, hozirgi kunda asosiy e'tiborni aholining siyosiy madaniyatini oshirishga qaratish lozim. **Siyosiy madaniyat demokratiyani tabiiy ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.** Milliy tiklanish demokratik partiyasi umumjaxon e'tirof etgan demokratik tamoyillarni milliy kadriyatlarimiz bilan uygunlashtirib odamlar ongiga demokratik goyalarni singdirib jamoatchilik nazoratini amalga oshiriga xarakat kilib bormokda.

Ijtimoiy ximoyani ustuvor vazifa kilib belgilagan Uzbekiston xalk demokratik partiyasi axolini ijtimoiy muammolarini jamoatchilik nazorati ostiga olishga aloxida e'tibor bermokda. **Odamlarni siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji siyosiy partiyalar orqali ta'minlanadi.** Siyosiy partiyalar o'z nazorat funksiyalarini asosan boshlang'ich partiya tashkilotlarida amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Chunki **jamiyatda tratib o'rnatish har bir jamoada va tashkilotda tartib o'rnatishdan iborat bo'ladi.** Siyosiy partiyalarning kuchliligi ularning boshlang'ich partiya tashkilotlarini kuchliligi bilan belgilanadi. Nazorat funksiyasi ham aynan boshlang'ich partiya tashkilotlarida kuchli bo'lishi lozim.

Nazorat tizimini elementlari o'rtasida nazoratni amalga oshirishga xizmat qiladigan **ijtimoiy hamkorlik** o'rnatilishi kerak. Jamoatchilik nazoratini

kuchaytirishda ijtimoiy fikr muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy fikrni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari jumladan, partiyaviy nashrlar faol bo'lishlari lozim. **Nazorat tizimini eng muhim elementi bu quyidagi boshlang'ich partiya tashkilotlarini va umuman boshlang'ich tashkilotlarning nazoratidir<sup>1</sup>.** Agar shu yerda nazorat bo'lmasa nazorat tizimining yuqori bosqichlarida nazorat bo'lmaydi yoki zaif bo'ladi. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarini boshlang'ich tashkilotlarini kuchliligi va faolligini taqozo etadi. Zamonamiz mohiyati bo'lgan «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasining mazmun-mohiyati ham shuni anglatadi.

Shu munosabat bilan ushbu konsepsiyani mohiyatini anglab olish lozim. **Barcha sivilizasiyalashgan mamlakatlar xalqning boyligi eng avvalo har bir oilaning to'kinchiligi va boyligidan tashkil topshini, xalqni erkinligi esa har bir odamni erkinligidan tashkil topshini tushunib yetishgan.** Sobiq sovetlar zamonida davlat oila boyligini va odamni erkinligini iqtisodiy asosi bo'lgan **xususiy mulkni** bekor qilishda chegaradan chiqib ketdi. Oldin ular xususiy mulkni pomeshek va kapitalistlardan olishdi. Bu o'sha zamonda hukmronlik qilgan kommunistik mafkuraga asosan to'g'ri edi. Lekin keyinchalik ular xususiy mulkni, ya'ni yerni dehqondan, zavodlarni ishchilardan, intellektual mulkni ziyolilardan tortib olishdi. Bu esa katta xato edi. Chunki bu odamni har taraflama ya'ni total tarzda davlatdan tobe bo'lishiga olib keldi. Barcha narsani davlat belgilab beradigan bo'ldi, ya'ni kim qayerda ishlashi kerak, kim qancha ish haqqi olishi kerak, qayerda va hatto kim bilan yashashi kerak, barchasini davlat belgilab berardi. Natijada inson totalitar tuzum rahbarlari orzu qilganidek gigant davlat mexanizmini kichkina bir murvatchasiga aylanib borar edi. Xatto adolatsiz majburlov va davlat ekspluatasiyasining obyektiga aylana boshladi. **Lekin inson ongli mavjudot sifatida murvatcha bo'lishni xoxlamas edi.** U ongli, erkin fikrlaydigan jonli mavjudot bo'lishni xoxlar edi va bu odam turli shakllarda davlatdan o'ch ola boshlaydi. Ya'ni, o'zini bexafsala, beg'am mehnati, ichkilikbozligi, o'g'riligi, ijtimoiy befarqligi bilan o'ch olar edi. Jamiyatni barbod

---

<sup>1</sup> Қиёмов М. Қонунчилик назорати: адолатли ва мақбул йўл бўлгани боис муҳим аҳамиятга эга// Жамият. - 2010. – 9 апрель

bo'lishiga olib kelgan turg'unlik va inqirozning sabablari ana shularda edi.

Bunday holat kuchli davlat va kuchsiz fuqarolik jamiyatini anglatadi va bunda fuqarolik jamiyati davlatni nazorat qila olmaydi. Vaholanki, **fuqarolik jamiyatini asosiy vazifalaridan biri bu davlat ustidan nazoratni amalga oshirib hokimiyatni hukmronlikka aylanib ketishini oldini olishdan iborat.** Sobiq sovetlar zamonida fuqarolik jamiyati o'zini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslaridan mahrum bo'lgan edi. Xususiy mulkni bekor qilinishi bilan fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosi yo'q qilingan edi. Kommunistik mafkura esa ham siyosiy, ham ma'naviy sohada o'z hukmronligini o'rnatib, siyosiy va ma'naviy erkinlikni bo'g'ib qo'ygan edi. Faqat mustaqillik sharofati bilan fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asos shakllana boshlandi. Fuqarolik jamiyati odamga erkin fikrlash, boshqacha qilib aytganda qo'rquvni bartaraf qilib, erkin fikrlash imkonini beradi. Erkin fikrlagan odamda yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Sobiq sovetlar zamonida erkin fikrlash uchun sharoit bo'lmaganligi sababli yangi progressiv g'oyalar va umuman ilmiy kashfiyotlar deyarli bo'lmagan, bo'lganlari ham amaliyotga tadbiiq qilinmagan.

**Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyili siyosiy hayotda partiyalar faoliyatini va ayniqsa boshlang'ich partiya tashkilotlari faolligini taqozo etadi<sup>1</sup>.** Chunki, demokratiya pastda namoyon bo'ladi. Yuqoriga chiqqan sari demokratiya pasayib oligarxiya kuchayib boradi. Demak, demokratiya quyi tashkilotlarni faolligini talab qiladi. Boshlang'ich partiya tashkilotlarining o'rni va roli fuqarolik jamiyatini rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Kuchli fuqarolik jamiyatlarida boshlang'ich partiya tashkilotlari kuchli bo'ladi. Siyosiy partiyalar ham davlatga, ham fuqarolik jamiyatiga dahldor bo'lgan institut bo'lib hisoblanadi. **Siyosiy partiyalar elitasining kuchliligi davlatning kuchliligining alomati bo'lsa, boshlang'ich partiya tashkilotlarining kuchliligi fuqarolik jamiyatining kuchliligining belgisidir<sup>1</sup>.** Demokratiya quyi yuqorini nazorat qilinishini taqozo etadi. Chunki yuqoriga chiqish bilan odam pastdan ajralib qola

---

<sup>1</sup> .Набиев Ф.Х. Сиёсий партиялар ўртасидаги кураш назорат борасида бўлиш лозим. «Адолат». 2010 йил, 20 август.

boshlaydi. Shuning uchun quyi doimo yuqorini nazorat qilib borishi kerak. Kuyi yukorini nazorat qilishi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini tashkil qiladi. Shuning uchun Uzbekiston xalk demokratik partiyasi asosiy e'tiborini boshlangich partiya tashkilotlarida nazoratni kuchaytirishga xarakat kilmokda.

Konun ustuvorligi va jazoni mukarrarligini ta'minlab jamiyatda adolatni karor toptirish masalasini nazorat qilish «Adolat» sosial- demokratik partiyasini asosiy vazifasi bulib xisoblanadi. Buning uchun partiya xar bir fukaroni nazoratda ishtirok etishini ta'minlashga xarakat kilmokda. Jamiyatda hych bir inson nazorat tizimini ishlashidan chetda qolmasligi kerak va hych bir inson ushbu tizimni ishlamasligidan yoki uni uzilishidan manfaatdor bo'lmasligi kerak. Xatto manfaatdor bo'la olmaydi deb aytish to'g'riroqdir. **Chunki nazorat tizimi ishlamaydigan joyda xech kim baxtli bo'la olmaydi.** Baxtilikning eng muhim sharti bu insonda qo'rquvsiz erkin yashash hissidir. Bunday hissiyot faqat tartib o'rnatilgan jamiyatda ya'ni qonunga rioya qilish amalda ta'minlangan jamiyatda bo'lishi mumkin. Bu esa kuchli nazorat tizimi orqali ta'minlanishi mumkin.

**Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishda bizda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, agar biror-bir mansabdor shaxs qonunni buzsa, uni jazosini yuqori lavozimda o'tirgan shaxs berishi kerak emas, balki tizim berish kerakligi ta'kidlaganlar<sup>1</sup>.**

Nazorat tizimini samarali ishlashi uchun nima nazorat qilinishi kerakligini aniq bilish kerak. Qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Qonun va axloq ijtimoiy hayotni barcha sohalarida amal qiladi. Qaysi sohada yoki qaysi jarayondagi qonunga rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Albatta, barcha jarayonlarda qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Lekin eng muhimi **kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayonida qonun va axloqqa rioya qilish qat'iy nazorat ostiga olinishi lozim.** Ushbu jarayondagi qonun buzilishi holatlari boshqa ko'plab ijtimoiy muammolarni sababi bo'lib hisoblanadi. Mashhur Ibn Sino o'zining asarlarida kasallikni emas, sababini davolash kerak deb

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Янги хаётни эскича караш ва ёндашувлар билан куриб булмайди. Халк сузи. 2005 й. 8 – феврал, 3-бет.

yozib qoldirgan. Sabab bartaraf qilinmasa, oqibat bartaraf qilinmasligi allaqachonlar isbotlangan haqiqatdir. Barcha sohada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishda bilim va mas'uliyat asosiy mezon bo'lishini nazorat qilish kerak. Agar kadrlarni tanlash tanish-bilishchilik, oshna-og'aynigarchilik va poraxo'rlik asosida amalga oshirilsa, bunday jamiyatda nazorat tizimi samarali ishlamaydi. Kadrlar masalasi muhimligi to'g'risida muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov bir necha marotaba viloyat Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalarida **men uchun eng og'ir muammo kadrlar muammosi** deb bejizga ta'kidlamaganlar.

Nazorat tizimi jamiyatda tartib o'rnatishning muhim sharti ekan, siyosiy partiyalar va ularning deputatlar guruhlarini asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtirishga qaratishlari lozim. Siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurash nazorat tizimining mukammal loyihalarini ishlab chiqarish borasida bo'lishi kerak. Bu borada «Adolat» sosial demokratik partiyasi boshqalarga namuna bo'lishi kerak. Chunki, partiyaning asosiy maqsadi jamiyatda qonun ustuvorligi va jazoni muqarrarligini amalda ta'minlab, adolatni qaror toptirishdan iborat. Demak, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan qonun ustuvorligini ta'minlashda «Adolat» sosial - demokratik partiyasi hal qiluvchi rol o'ynashi lozim. Partiyaviy nashrlar nazorat tizimini takomillashtirish masalalarini qizg'in muhokama qiladigan minbarga aylanishi lozim. Umuman ommaviy axborot vositalari asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtirish masalalariga qaratishlari kerak. Mukammal nazorat tizimi konun ustuvorligi va jazoni muqarrarligini ta'minlaydi. Buni ahamiyatini «buyuk bobomiz Amir Temurni **qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi** degan dona so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr berganligidan»<sup>1</sup> ham bilish mumkin. Erkin yashash esa inson baxtliligini muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi **kuchli nazorat tizimini** shakllanishiga bog'liq. Kuchli nazorat tizimini shakllanishi esa, **kuchli fuqarolik jamiyati institutlari** va eng avvalo **kuchli siyosiy partiyalarning mavjudligiga bog'liq.**

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари . Тошкент, 1997 й. 280 бет.

Siyosiy partiyalarning kuchliligi esa jamiyatni siyosiy madaniyatiga, odamlardagi daxldorlik xissiga va fukarolik pozitsiyasi shakllangan **kuchli shaxslarni mavjudligiga boglik**. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish fan va ta'limda siyosiy bilimlarni o'rganish va targ'ib qilish bilan birga siyosiy partiyalarning o'z elektoratini siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan siyosiy o'quv tadbirlari bilan ham belgilanadi. Bu borada tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zLiDePni siyosiy ta'lim markazi faoliyatini namuna qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu partiyaning siyosiy ta'lim markazi faoliyati singari siyosiy bilimni targ'ib qilish tadbirlarini boshqa partiyalar o'z elektorati o'rtasida ham amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Ana shunda aholini siyosiy madaniyatini oshirish jarayoni ancha jadallashadi. Albatta, odamlarni **siyosiy madaniyatini oshirish ma'lum bir vaqtni taqozo etadigan evolyusion jarayon bo'lib hisoblanadi**. Bu borada shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun O'zbekiston taraqqiyotning evolyusion rivojlanish yo'lini tanlab demokratiyani umumjahon e'tirof etgan tamoyillarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda halq hokimiyatini qaror toptirib bormoqda. **Demokratik jarayonlarni takomillashib borishi siyosiy madaniyatni o'sib borishiga munosib bo'lishi lozim**.

Demokratiyada nazoratni muhimligi shundaki **xalq o'zini nazorati orqali demokratiyani amalga oshiradi**. Inson tabiatan nazoratga muhtoj ayniqsa, jamiyatni boshqarayotgan mansabdor shaxslar, deputatlar va barcha darajadagi rahbarlar xalqni nazorati ostida bo'lishlari kerak. Bu demokratiyani muhim talabidir. Chunki **barcha odamlarda tabiatan egoizm bor** va nazoratsizlik oqibatida odam faqat o'zini manfaatlarini quliga aylanib qolishi mumkin. Xalqni orasidan ya'ni pastdan chiqqan rahbar yoki deputat xoxlaydimi, xoxlamaydimi u xalqdan ajralib qoladi. Shuning uchun uni xalq pastdan nazorat qilib turishi kerak bo'ladi. **Demokratiya quyida namoyon bo'ladi**. Yuqoriga chiqqan sari demokratiya pasayib oligarxiya kuchayib boradi. Mamlakatda davlat boshlig'i ya'ni Prezidentdan tashqari barcha darajadagi rahbarlar nazorat va tanqid ostida bo'lishlari lozim. Nima uchun davlat boshlig'i nazoratdan mustasno bo'lishi

kerak? Chunki, nazoratdan maqsad jamiyatda tartib o'rnatish bo'lib hisoblanadi. Jamiyatda tartib o'rnatishdan eng manfaatdor shaxs bu Prezidentdir. Shuning uchun Prezidentni nazoratga qilishga zarurat yo'q. Ushbu fikrni oila misolida ko'rganda hiech bir oila boshlig'i o'z oilasida tartibsizlikni xohlamasligini va oilada tartib o'rnatishdan eng manfaatdor oila boshlig'i ekanligini anglab olish mumkin. Mamlakatni katta kengaygan oila deb olsak, uni boshlig'i tartib o'rnatishdan eng manfaatdor inson ekanligini tushunib olish mumkin.

## **II-bob. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida**

### **2.1 O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi va aholini ijtimoiy himoyalashning ustuvor vazifalari**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan jamoat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi o'rni va rolini mustahkamlash va oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Zero, islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan jamoatchilikning ishtirokiga bog'liq, shu jihatdan, uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, xususan, jamoat tashkilotlariga muhim o'rin beriladi. Binobarin, samarali faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

**1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar:** xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporasiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va boshqalar.

**2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar:** oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari

(maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

### **3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar:**

siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; siyosiy muxolifatning mavjudligi; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar. O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholini turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati, mazmuni va maqsadi u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo'nalishlarida ifodalanadi. Shu jumladan, jamoat tashkilotlarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon

bo'ladi<sup>1</sup>.

Jamoat tashkilotlarining demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish maqsadga muvofiq:

**Birinchidan**, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitusiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar taomillari doirasida muqobil siyosiy yullarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Umuman, har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

**Uchinchidan**, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари органлари тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири) // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning integrasiyalashuviga erishish;
- ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini shakllantirishga ko'maklashish;
- jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirish, mehnat bozorini shakllantirish;
- jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy voqyelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funksiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda

ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi obyektiv xususiyatga egadir.

Mamlakatimiz o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Konstitusiyamizning muqaddima qismidagi ushbu ustuvor g'oyaga inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida qaror toptirish borasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarimizning asosiy mezonini sifatida qaraladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga mone'lik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlarini uning huquq va erkinliklari to'la darajada ruyobga chiqishiga yordamlashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"<sup>2</sup>. Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir<sup>3</sup>.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad inson hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari, o'z navbatida, alohida shaxs uchun uning hokimiyat manbai ekanligini his qilishga hamda uning layoqati va harakati, obro'si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim

---

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б.173

<sup>3</sup> Қаранг: Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамяти. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.172

shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmisligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligiga to'xtalib, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, jumladan, shunday deb ta'kidlaydi: "Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q"<sup>4</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar barobarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga nisbatan aholining ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, ushbu omil davlat va aholi o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning yuzaga kelishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, bunday ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda quyidagi uchta jihatga alohida e'tibor qaratish lozim: hokimiyat organlari faoliyatining oshkora namoyon bo'lishi; davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish; fuqarolarni jamiyatdagi mavjud institusional nazorat tizimiga jalb qilish.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste'molchilarning uyushmalari va boshqalar faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hokimiyat organlari xalqqa o'z siyosati va xarakatlarini tushuntirishi, uning oldida xisob berishi lozim.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs,

---

<sup>4</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. –Б.28-29.

jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning hukuq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining mazmun va mohiyatini quyidagi yo'nalishlar asosida tavsiflash mumkin:

1. Hokimiyat organlari faoliyatining doimiy tizimli monitoringini olib borish. Bu shakl asosan o'tish davrida bo'lgan va ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zgarayotgan davlatlarga xos bo'ladi.

2. Hokimiyat organlari faoliyatiga oid manzilli monitoring olib borish. Masalan, ekologik jamoat tashkilotlarini davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi siyosatini nazorat qilishi.

3. Ijtimoiy muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki.

4. Hokimiyat organlari huzurida nazorat komissiyalarining, jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlari orqali davlatga nisbatan o'ziga xos ta'sir kuchi yaratadilar. Bir so'z bilan aytganda, jamoat tashkilotlari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga hamda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan qonun loyihalari va hukumat karorlariga o'z munosabatlarini bildirishlari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Albatta, yuqoridagi masalalar eng avvalo, davlat hokimiyati organlari vakolatlari doirasiga kiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlarining ishtirokisiz davlat organlari o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini samarali va to'laqonli amalga oshirishlari qiyin. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari davlat bilan xalq o'rtasidagi vositachi sifatida ijtimoiy muvozanatni yuzaga keltirish vazifasini o'taydilar. Bunday vositachilik, shubhasiz, har ikki tomon uchun ham foydalidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko'p jihatdan nodavlat jamiyat tuzilmalari va uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlariga bog'liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta'minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini to'la ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratar ekan, jumladan: "qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz "Adolat - qonun ustuvorligida" degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q", deb ta'kidlaydi<sup>5</sup>.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ham muayyan darajada taminlaydi.

Jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan jamoat nazoratining ahamiyatli tomonlari va xususiyatlari qo'yidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

- jamiyat va shaxs manfaatlarining ustunligi;
- bunday jamoatchilik nazoratining keng qamrovliligi, ya'ni u ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshirilishi;
- uning ommaviyligi, ya'ni har bir fuqaro va fuqarolar guruhlar uchun bunday nazoratda istisnosiz ishtirok eta olish imkoniyatining mavjudligi;
- undagi oshkoralik, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni ham, uning natijalari ham barcha uchun ochiq oydinligi va bu nazoratning ommaning nigohi hamda kuzatuvida amalga oshirilishi;
- nazoratni o'tkazishning ixtiyoriylik va beg'arazlilik asosida bo'lishi;

---

<sup>5</sup> Қаранг: Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003.–Б.10.

– uni amalga oshirish jarayonida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan besh mingdan ortiq jamoat tashkilotlari yuqoridagi huquqiy asoslarga tayangan holda ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari asosida muayyan darajada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: “biz nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Nodavlat va jamoat tuzilmalarining, birinchi navbatda demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va huquq-tartibot idoralari faoliyati ustidan to'rachilik va korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasi bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz”<sup>6</sup>.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro yetmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini qonun hujjatida belgilab qo'yish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma'ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro yetilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan “O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va

---

<sup>6</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. –Б. 87.

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi hamda bu borada mukammal huquqiy asos yaratildi. Ayniqsa, ushbu institutlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitusiyaviy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tashkilotlarning turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 56-moddasida "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi", deb belgilandi<sup>7</sup>.

Shuningdek, yuqoridagi konstitusiyaviy tamoyillar qator qonun hujjatlarida yanada rivojlantirildi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir.

Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasini yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. Yuqoridagilar bilan birga, jamoat

---

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. –Б.11.

tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitusiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug'dirdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi muhim o'rin tutadi. Konstitusiyaning ko'pgina moddalarida ushbu institutlar faoliyatiga oid bo'lgan konstitusiyaviy tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitusiyaning 34-moddasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanligini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitusiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitusiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assosiasiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitusiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga binoan, "Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"<sup>8</sup>.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi<sup>9</sup>.

Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir qator o'zgartirishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga binoan, ular o'zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab

---

1. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 40-б.

2 Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида"ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991. –№4. –76-модда

qo'yildi.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarini ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo'ldi. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda va jamiyatni erkinlashtirishda faol ishtirok etishiga ko'malashish, ularni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish uchun mustaqil tizim va obyektiv sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzish haqida qo'shma Qaror qabul qildi.

Mazkur komissiyaning faoliyati "uchinchi sektor" deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli

ma'ruzasida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunini qabul qilish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimiz ham ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Ziddiyatlar avj olgan sharoitda O'zbekiston rahbariyati respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'llarini mustaqil tarzda belgilay boshladi. 1991 yil 19-21 avgust kunlari Moskvada davlat to'ntarishiga bo'lgan urinish natijasida boshboshdoqlik va parokandalikning avj olishi, markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora keskinlashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan tarixiy sharoitda O'zbekiston hukumati vaziyatni to'g'ri baholadi va O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi o'z ishini boshladi. Bu sessiya mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilinishining qonunchilik asoslarini ishlab chiqdi va xalqimiz ozru qilgan – mustaqillikka erishildi. Bu tarixiy voqyea o'zbek xalqi tarixida yangi davr, milliy dunyoqarash, yangicha tafakkur tarzini shakllanishiga turtki bo'ldi.

Tabiiyki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar jahon bozorida milliy mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Millatchilik, diniy fanatizm, jamiyatning turli guruhleri va qatlamlari o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi kuzatiladi. Bularning barchasi yangi yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning barqarorligiga tahdid soladi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab vaziyatda mamlakatimizni o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali qismini o'zlashtirish bilan birga xalqning turmush tarzi va an'analariga murojaat qilindi.

Bizga ma'lumki, jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hamma mamlakatbop tamoyillari, barcha uchun tavsiya qilish mumkin bo'lgan tayyor

andozalari bo'lmaydi. Shu sababli, respublika hukumati rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash uchun jiddiy izlanishlar olib borib, avvalambor, mustaqillikning dastlabki yillaridagi jarayonlar tahlil qilindi va davlat qurilishi hamda iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida besh asosiy tamoyil ilgari surildi. Ushbu tamoyillarning to'rtinchisi qilib, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish belgilandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagandek, «Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak».<sup>1</sup> Darhaqiqat, kuchli ijtimoiy siyosatsiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda fuqarolar orasida katta tafovut vujudga kelishi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan, imkoniyati cheklangan kishilar, ko'p bolali oilalar mushkul ahvolga tushib qolishi mumkin. Rivojlanishning besh asosiy tamoyilidan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining bosh g'oyalari yaratildi. Bunda, birinchidan, inson qard-qimmatini kamsitmaydigan yashash sharoitini vujudga keltirish (yashash uchun eng zarur miqdor\* bilan ta'minlash), ikkinchidan, ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi, uchinchidan, muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish g'oyalari muhim ahamiyat kasb etdi.<sup>2</sup> Xullas, bozor munosabatlariga o'tishning muhim tamoyili sifatida kuchli ijtimoiy siyosat tanlandi va uning strategik vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– Fuqarolar erkin iqtisodiy faoliyatini va tadbirkorligini, kasb tanlash va mehnat qilish sohasini tanlash erkinligi huquqini konstitusion kafolatlarini ta'minlash.

– Aholini ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq manzilli xususiyati va turli tabaqalariga differensial yondashuv.

– Nisbatan zaif qatlamlar va guruhlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

– Mehnatni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini qo'llash, ijtimoiy soha tarmoqlarini isloh qilish.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 18 б.

\* Яшаш учун энг зарур миқдор билан таъминлаш – киши ўз ҳаётини, турмушини иқтисодий томондан таъминлай олмайдиган ҳолларда унинг истеъмоли учун энг зарур нарсалар билан таъминлаш маъсулиятини давлат зиммасига олиниши. Қаранг: Мунье Э. Манифест персонализма. – М.: Республика, 1999. – 155 с.

<sup>2</sup> Государственное и административное устройство Германии. Ўзбекистон Республикасининг давлат ва маъмурий тузилиши. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 65 с.

## **II. 2. Fuqarolik jamiyati nazoratini amalga oshirishda ma'naviyatning o'rni.**

Zamonamiz mohiyati bo'lgan fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu maqsadga erishish odamlarning ongu tafakkuriga demokratik va liberal qadriyatlarning singdirilishi, eng avvalo

xalqimizning ma'naviy yuksalishiga bog'liqdir. Ammo shu bilan birga fuqarolik jamiyatining shakllanish sharoitida ma'naviyatning sayozlashuvi ehtimoli ham paydo bo'ladi.

Insoniylik jamiyatida ma'naviyat va ijtimoiy axloqning o'rnini tug'risida gapirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: **«Hozirgi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muxim ekanini anglab olmoqda»<sup>10</sup>**

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu so'zlari bizni fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axloqni himoya qilish va ma'naviyatni yuksaltirish muammolarini tahlil qilishga undaydi.

Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab, u o'zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan farovon jamiyatni orzu qilib kelmoqda. Hozirgi kunda ham ozod va obod farovon jamiyatni orzu qilib kelyapmiz va bunday jamiyatni qurish «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» bilan amalga oshirilmoqda.

Ammo fuqarolik jamiyatining shakllanishi jarayonida huquq va erkinliklarning oshishi oqibatida insoniylik jamiyatida to'g'ri yo'ldan ayrim og'ish holatlari kelib chiqmoqda. Buni biz, fuqarolik jamiyati rivojlangan AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yaqqol namoyon bo'layotgan oilaning global inqirozida ko'rishimiz mumkin. Ularning axloqi nikoxsiz turmushni, oiladagi ajralishlarni, yolg'iz kishilarni, «gey» va «lesbiyanka»larning bir jinsli nikohini normal holat deb qabul qilmoqda. G'arb mamlakatlarida yaqqol namoyon bo'layotgan oilaning global inqirozining bizning mamlakatimizga kirib kelish tahdidi mavjud va buni o'z vaqtida anglab olish o'ta muxim. Shu o'rinda yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini eslash lozim: «Bugungi kunda

---

<sup>10</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. Тошкент «Маънавият» 2008, 117-бет

zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu kadar tezkorki, endi ilgorigidek, ha bu voqeya bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga alokasi yuk, deb beparvo qarab bulmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillab orqaga kolib ketishi hyech gap emas»<sup>11</sup>. Hayot mazmuniga zid bo'lgan bunday holatga e'tibor qilmaslik ertami-kechmi insoniyatni halokat yoqasiga olib keladi. Buning oldini olish esa fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishni talab etadi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risida gapirishdan oldin uning aniq bir ilmiy ta'rifini berish zarur. Aks holda fikrlar tarqoqligi va ayrim tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Fuqarolik jamiyati – insonning hayot faoliyati sharoitini ta'minlaydigan, shaxs va ijtimoiy guruhlarning xilma-xil ehtiyoj hamda manfaatlarini qondiradigan, amalga oshiradigan ijtimoiy munosabatlar, rasmiy va norasmiy strukturalar majmuasidir. Fuqarolik jamiyatining mohiyatini anglab olish uchun uni sosiologik asoslarini bilish lozim. Buning uchun insonning harakati ostida nima yotganligi, inson nima uchun ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishining sababini aniqlab olish kerak. Odamlar faoliyati asosan umumahamiyatli ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq va aynan shuning uchun ular ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etadilar deb aytish xato bo'lar edi. Chunki odamlarning aksariyati xilma-xil manfaat va ehtiyojlarni, jumladan, individual manfaatlarni qondirish bilan band bo'lishadi. Ular bu ehtiyojlarni kundalik hayot sohasida qondirishga harakat qilishadi. Kundalik hayotda individlarning harakati ularning avtonomlikka intilishini va jamiyat hayotidan mustaqil bo'lishga urinishini aks ettiradi.

**Individlarning kundalik hayoti, uning birlamchi shakllari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ammo kundalik ehtiyojlar va ularni qondirishning birlamchi shakllarining xilma-xilligi individ va ijtimoiy guruhlar intilishlarining muvofiqligi hamda integrasiyasini talab qiladi. Chunki muvofiqlik va integrasiya bo'lgan taqdirdagina jamiyatning yaxlitligi va taraqqiyotini ta'minlash mumkin. Ijtimoiy, guruhiy va individual manfaatlarning muvozanatini, o'zaro aloqasini davlat o'zining**

---

<sup>11</sup> Ўша ерда. 112-бет

**boshqaruvchilik funksiyasi orqali amalga oshiradi. Demak, global jamiyat, ya'ni keng qamrovli insoniylik jamiyati fuqarolik jamiyati va davlatdan iborat buladi.**

Fuqarolik jamiyati va davlat, jamiyat hayotining turli tomonlari va holatlarini aks ettiradigan ijtimoiy universallik hisoblanadi. Davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro munosabatini tushuntirish uchun ularning mazmunini, faoliyatini amalga oshirishning vositalari va asoslarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Davlatning mazmuni ijtimoiy guruh, sinf, xalqlarning umumahamiyatli ehtiyojlarini qondirish sohasi bo'lsa, fuqarolik jamiyati individning kundalik ehtiyojlarini qondirish sohasidir.

Davlat faoliyatini amalga oshirishning vositalari konstitutsiya, hokimiyat, huquq, majburlov demak, fuqarolik jamiyati asoslarini ishonch, e'tiqod, imon, huquqiy va axloqiy normalar, an'ana va urf-odatlar tashkil qiladi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ijtimoiy axloqning mavqeyi ortib borishi lozim.

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy insoniy jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan tushunchalar, ya'ni huquq va axloq to'g'risida gapirib, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashda axloqning roli yuqori ekanligini quyidagicha ko'rsatgan edi: **«Agar jamiyat qonunlar yordamida boshqarilsa va tartibot jazolashlar vositasida amalga oshirilsa, odamlar jazolashlardan o'zlarini olib qochishga intiladi, lekin ular o'zlarida or-nomusni his qilmay qo'yadilar; agar jamiyat axloq vositasida boshqarilsa, tartibot axloqiy qadriyatlar bilan ta'minlansa, odamlar or-nomusni his qiladilar, halol va sofdil bo'ladilar»**<sup>12</sup>. Konfusiyning maqsadi odamlar uchun ideal farovon jamiyat yaratish bo'lganligini hisobga olsak va shunday jamiyatni biz fuqarolik jamiyati deb bilsak, demak, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida ijtimoiy axloqning ahamiyati ortib, ma'naviyat yuksalib borishi kerakligini tushunish mumkin.

Davlat asosini siyosiy institutlar, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, yo'lboshchilar, elita tashkil qilsa, fuqarolik jamiyatining asosini

---

<sup>12</sup> История политических и правовых учений. Древний мир. М.: Наука, 1985. с.170.

daxlsiz huquqlarga ega bo'lgan va shu huquqlarni amalga oshirishga yordam beradigan nosiyosiy tashkilotlari bo'lgan erkin individ tashkil etadi. Bu esa fuqarolar siyosiy madaniyatining yuqori bo'lishini taqozo qiladi.

Davlatga ham, fuqarolik jamiyatiga ham daxldor bo'lgan kuchlar - bu siyosiy partiyalar, harakatlar, fuqarolarning manfaatini ifodalaydigan guruhlardir.

Alohida shaxslarni bir-biriga nisbatan munosabatda mutlaqo erkin bo'lgan sohani fuqarolik jamiyati tashkil qiladi. Fuqarolik jamiyati ko'plab shaxslararo munosabatlardan va jamiyat aholisini birlashtiradigan ijtimoiy kuchlardan tashkil topadi.

Fuqarolik jamiyati har bir kishi o'z ixtiyori bilan shaxsiy manfaatlarini qondiradigan, erkin shaxslar o'zaro munosabatda bo'ladigan ijtimoiy va madaniy makon bo'lib hisoblanadi. Davlat esa, siyosat subyektlarini - davlat strukturalari, siyosiy partiyalar, bosim guruhi va boshqalarining faoliyati to'la qat'iy belgilangan makon hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati va davlat bir-birini to'ldiradi. Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik jamiyat qurish mumkin emas. Chunki erkin ongli fuqarolargina insoniylik jamiyatini oqilona uyushtirishlari mumkin.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ bilan markazlashgan davlat hokimiyati o'rtasida bog'lovchi mustahkam halqa bo'lsa, davlat avtonom shaxsni huquq va erkinliklarini amalga oshirishga sharoit yaratib tarqoqlikka, tartibsizlik inqiroz va tushkunlikka qarshi turishga xizmat qiladi.

**Fuqarolik jamiyatining shakllanib borishi jarayonida odamlarning huquqlari ham oshib boradi. Huquqning oshishi esa odamlar xatti-harakatida erkinlik chegaralarini kengaytiradi. Erkinlikning o'sishi odamlar xulqida ayrim deviant (og'ishlarni) o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunday o'zgarishlarni o'z vaqtida tuzatmaslik oxir oqibatda insoniy jamiyatning halok bo'lish darajasigacha buzilishiga, axloqsizlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun fuqarolik jamiyati shakllanib borishi jarayonida ijtimoiy axloq muhofazalanib, ma'naviyat yuksalib borishi zarur.**

Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axlokning ahamiyati to'g'risida buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday degan: «Insoniyat

**faqatgina ilm va yuksak axloqiylik asosida yaxlit fozil jamoaga birlasha olishi mumkin»<sup>13</sup>.** Uning ta'limoti markazida yuksak ma'naviyatli va axloqli komil insonni shakllantirish g'oyasi yotibdi.

Jamiyat taraqqiyoti jipslikka, jipslik esa, odamlar o'rtasidagi munosabatning tartibga solinishiga bog'liq. Shu maqsadda insoniyat ikkita regulyatorni huquq va axloqni o'ylab chiqqan. Huquq majburiylikka, axloq esa, ixtiyoriylikka asoslangan. O'zbekistonda olib borilgan islohotlarning mohiyati liberallashtirish ekan, demak, ikkinchi ijtimoiy tushuncha bo'lgan axloqning roli albatta ortib borishi kerak. Chunki axloq yuqorida aytilganidek ixtiyoriylikka asoslanadi. Bu esa axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyatning yuksalishini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida esa birinchi ijtimoiy tushuncha bo'lgan huquqning mavqeyi nisbatan pasayadi, chunki fuqarolarning huquqi ortib boradi. Huquqlari ortib borishi oqibatida ular o'zlarini erkinroq his qila boshlaydilar, lekin erkinlik to'g'ri yo'ldan og'ish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa ijtimoiy axloq kuchaymagan holatlarda. Shuning uchun fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida ijtimoiy axloq kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda ikkinchi ijtimoiy tartib me'yori bo'lgan axloq jamiyat jipsligini ta'minlab, taraqqiyotni belgilab beradi. Aks holda jamiyatda to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari, buzuqlik, axloqsizlik kuchayib ketishi mumkin. Hozirgi kunda oilaning global inqirozi bunga yaqqol misoli bo'ladi. Bularga e'tibor bermaslik insoniyatni qirg'in qilish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Payg'ambar Nux davrida insoniyat qirlishining asosiy sababi axloqsizlik, buzuqlikning kuchayib ketishi edi. Bunday ayanchli holat takrorlanmasligi uchun ijtimoiy axloq kuchayib, ma'naviyat yuksalishi lozim.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarining ahamiyati benihoyat kattadir. Kitobning yozilishi muallifning nafaqat bir mamlakat, bir millat miqyosidagi, balki global miqyosdagi yetakchi ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi. Asosiy vazifa endi kitobdagi g'oyalarni odamlarning ongi va qalbiga singdirishdan iborat. Bu g'oyalarni odamlar ongi va qalbiga singdirish esa, shu sohada ishlaydigan

---

<sup>13</sup> Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Т.1993й. 186-б.

odamlarning bilimi, malakasi, tajribasiga va mas'uliyatiga bog'liq bo'ladi. Biroq adolat yuzasidan shuni e'tirof etish kerakki, o'z navbatida ular mahorati va mas'uliyatining yuksalishi jamiyatda ma'naviyatning qadr topishi bilan bog'liq. Ma'naviyatning qadr topishi esa, shu sohada ishlayotgan odamlarning qadri, mavqeyi va maoshi yuqori bo'lishiga bog'liq. Ma'naviyatning qadrlanishi ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ana shu sharoitlarga tayangan holda, axloqiy tarbiyani kuchaytirib, ma'naviyat yuksaltirilsa, albatta, farovon jamiyat qurish mumkin bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda qonunga rioya qilish hamda tartib-intizomni o'rnatish muhim rol o'ynaydi. Qonunga rioya qilish, adolatni qaror toptirish odamlarda daxldorlik xissi bo'lishini talab qiladi. Agar odamlarda loqaydlik kayfiyati kuchli bo'lsa, qonunga rioya qilishni ta'minlash murakkablashadi. Odamlardagi befarqlik hissini bartaraf qilish ma'naviyatning yuksalishi bilan bog'liq. Ma'naviyati yuksak odamning irodasi kuchli bo'lib, u adolatsizlikka befarq qarab to'ra olmaydi. U jamiyatda dahldorlik hissi bilan yashaydi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan adolatsizlikni bartaraf qilish odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotish demak. Odamlar o'zlaridagi befarqlikdan halos bo'lib, daxldorlik xissi bilan yashashlari uchun ma'naviyat yuksalishi lozim. Chunki ma'naviyat inson irodasini mustahkamlaydi.

Demak, ma'naviyatning yuksalishi jamiyatda ma'naviyatning qadr topishidir. Ma'naviyatning qadr topishi esa, shu sohada ishlayotgan odamlarning qadr topishi va mavqeyining yuksalishi bilan bog'liq. Shu bilan birga ularning bilimi, malakasi, mas'uliyati va jamiyatda qonun ustivorligining ta'minlanishi hamda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida hal qilinishi bilan belgilanadi. «Qorni och odamning qulog'iga gap yoqmaydi», deganday kambag'al, qashshoq odamlarga ma'naviyatni singdirish ancha murakkab masala.

Agar jamiyatda yuqorida keltirilgan omillar mavjud bo'lsa, ma'naviyatni yuksaltirish mumkin bo'ladi. Yana shuni aytish kerakki, tarbiya jarayoni va odamning qalbiga ezgu g'oyalarni singdirish ancha erta boshlanishi kerak.

Olimlarning fikricha, inson butun hayoti davomida oladigan ma'lumotlarining 70% ini besh yoshgacha olar ekan. Buyuk xadishunos olim Imom Al Buxoriy yetti yoshligida yuz minglab hidislarni yoddan bilganliklari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shuning uchun bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya bilan shug'ullanadigan tarbiyachilarning malakasi va mas'uliyati bilan ham jiddiy shug'ullanishi kerak. Har bir ishni mutaxassisi va ustasi bajarsa, ish samarali va sifatli bo'ladi. Tarbiya bilan mahoratli va mas'uliyatli tarbiyachilar shug'ullanishi kerak, albatta.

Ma'naviyatning yuksalishi ichki nazoratning kuchayishi bilan belgilanadi. Inson o'zini-o'zi nazorat qilib borishi zarur. Buning uchun odamlar qalbida ma'lum bir axloqiy o'zini nazorat qilishni ta'minlaydigan tamoyillar mavjud bo'lishi kerak. Ana shunda adolatni qaror toptiradigan hamda farovon jamiyat quradigan nazorat tizimi shakllanadi. O'zbekistonda ana shunday tizimni shakllantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalana bilish kerak xolos.

Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino o'zining «Yurak dorilari» risolasida: «ulug' Tangri inson yuragida ikkita bo'shliq yaratdi va shundan chap bo'shlig'ini ruhga o'rin qilib yaratdi<sup>14</sup>», deb yozadi. Yurakning o'ng bo'shlig'i esa, inson qalbiga o'rin hisoblanadi. Ruh bilan qalb bir-biriga yaqin va bir-biriga uzviy bog'liqdir. Inson ma'naviyati qalbdan shakllansa, ma'rifati inson ongida shakllanadi va ular uyg'unlikda bo'lishi kerak. Biri ikkinchisidan o'zib ketsa ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois insonga ta'lim berish bilan birga tarbiya ham berish shart. Ma'naviyat insonning qalbidan shakllanar ekan, uning inson qalbiga ezgu g'oyalarni singib borishi, unda yuksak ma'naviyatni shakllanishiga olib keladi. Ma'naviyat deganda inson ongidagi shunday bir xususiyat tushuniladiki, bu xususiyat moddiy ehtiyojlardan ma'naviy ehtiyojlarni ustunligini bildiradi. Ruhiy, axloqiy va aqliy manfaatlarning moddiy manfaatlardan ustunligi inson ma'naviyatining mohiyatini anglatadi. Bunday ma'naviyatga ega bo'lgan inson albatta, baxtli bo'ladi. Chunki baxt deganda inson moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilganlik holatini tushunamiz. Insonning ma'naviyati yuksak

---

<sup>14</sup> Абу Али Ибн Сино. Тиббий рисолалар. Т. 1987 й. 103 бет.

bo'lsa, demak u o'z ehtiyojlarini jilovlay oladi. O'z ehtiyojlarini jilovlay oladigan odamning baxtli bo'lishi esa ancha oson. Inson baxtni o'ziga yaqinlashtirishi va o'zidan uzoqlashtirishi ham mumkin. Ma'naviyati yuksak bo'lgan odamlar o'z ehtiyojlarini jilovlash orqali o'zlariga baxtni yaqinlashtiradilar. Inson ma'naviyatini yuksaltirish uning qalbiga ezgu g'oyalarni singdirish bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviyat bir millatga, mamlakatga emas, bu butun insoniyatga daxldor masaladir. Chunki ma'naviyatning sayozlashib ketishi chegara bilmaydigan muammolarni, insoniyatning qirilishi, falokat yoqasiga borib qolishi xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash qonun buzilgan vaqtda jazoning muqarrarligini kafolatlaydigan tizimning shakllanishiga bog'liq. Agar biror shaxs qonunni buzsa, uning jazosini yuqori lavozimda o'tirgan mansabdor shaxs emas, balki tizim berish kerak. Bunday tizimning shakllanishi ma'naviyatning yuksalishi bilan bog'liq bo'ladi. Chunki ma'naviyat inson iymonini baquvvat va vijdonini pok qilib, daxldorlik hissini va unda ichki nazoratni shakllantiradi. Shunda jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoning muqarrarligini ta'minlaydigan nazorat tartibi shakllanishi mumkin.

Jamiyatda tartib intizom bo'lishi uchun nazorat ishlab turishi kerak. Nazorat ikki xil: ichki va tashqiga bo'linadi. Tashqi nazoratni qonun amalga oshirsa, ichki nazorat ma'naviyat asosida amalga oshiriladi. Ichki nazorat shakllanishi uchun axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda har bir odam o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qila boshlaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida huquqiy ta'sir nisbatan pasayib borishi sababli axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda qonun ustuvorligini ta'minlaydigan nazorat kuchayadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash faqat huquq tartibot organlarigagina emas, balki shu jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarga bog'liq. Odamlar qonunga rioya qilishga befarq bo'lmasa, ana shunda qonun ustuvorligi amalda ta'minlanadi. Qonunga rioya qilishni ta'minlaydigan ichki nazorat eng avvalo huquq - tartibot organlarida, ayniqsa, sud hokimiyatida shakllanishi zarur.

Jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoning muqarrarligini ta'minlash hozirgi kunimizni farovon qiluvchi asosiy omildir. Biz ko'pincha boy o'tmishimiz va yorqin kelajagimiz bilan faxrlanib kelayapmiz. Lekin inson baxtli bo'lishi uchun u nafaqat o'tmish va kelajak, balki hozirgi kun bilan ham g'ururlanib yashashi kerak. Bu esa ma'naviyatning yuksalishini taqozo etadi.

Shuning uchun Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridagi g'oyalarni eng avvalo huquq - tartibot organlariga va ayniqsa, sud hokimiyatiga singdirish lozim.

Demokratiya va fuqarolik jamiyati zamonamizning mohiyatini tashkil qiladi. Hozirgi kunda biror-bir davlat o'z taraqqiyotini demokratik tamoyillarsiz tasavvur eta olmaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun demokratik tamoyillar mavjud bo'lishi shart. O'z navbatida demokratiya mavjud bo'lishi uchun esa yetuk fuqarolik madaniyati shakllanishi lozim. Demokratiya va fuqarolik jamiyati bir-birini taqozo qiladi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat tamadduni muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatisiz ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, shaxs va jamiyat o'rtasida mutanosib munosabatni shakllantirish ham mumkin emas. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy mohiyati jamiyatda adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish, davlat tomonidan majburlovni cheklash va inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir. Ammo fuqarolik jamiyati shakllanishi va shaxs manfaatiga xizmat qilishi uchun odamlar ongiga demokratik g'oyalar singdirilishi hamda fuqarolik munosabati o'rnatilib, siyosiy befarqlik tugatilishi lozim. Qachonki bir fuqaro ikkinchi bir fuqaroning taqdiriga befarq bo'lmasa, ana shunda fuqarolik jamiyati shakllangan bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asosi bir mafkura va dunyoqarash yakkahukmronligining yo'qligi, vijdon erkinligi va ma'naviy-axloqiy yuksak madaniyat hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida ma'naviy asoslar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviyat inson tarbiyasi bilan shug'ullanib, uning axloqini va ma'naviyatini shakllantiradi. Fuqarolik jamiyatida esa axloq asosiy nazoratchi hisoblanadi. Hyech bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni,

odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Jamiyatda demokratik qadriyatlarning o'rnatilishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi aholi ma'naviyati va bilimdonligiga bog'liq. Faqat bilimli va ma'naviyatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishi mumkin va aksincha, bilimsiz, ma'naviyatsiz jamiyat esa avtoritarizm va totalitarizm tamoyillarini ma'qul ko'radi.

Respublikamizda aholi bilimi va ma'naviyatini oshirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keng aholi qatlamlarini ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga sharoit yaratilgan. Milliy va jahon madaniyatining durdonalarini keng targ'ib qilish hamda ommalashtirish hozirgi yoshlarimizni kelajak avlodni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i lozim.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ma'naviy tarbiyaning ahamiyati ortib, asosiy e'tibor fuqarolar o'rtasidagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishga qaratilishi zarur, chunki fuqarolik jamiyatining mohiyati fuqarolar o'rtasidagi jipslik, birdamlikdan iborat, ya'ni bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaroni taqdiriga befarq bo'lmasligidan. Boshqacha qilib aytganda, odamlarda fuqarolik ma'naviyati shakllangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi. Aks holda fuqarolik jamiyati faqat qonunlarda, qog'ozlarda qoladi. Zero bir fuqaro boshqa bir fuqaroga uning taqdiriga nisbatan befarq bo'lsa, har qanday yaxshi qonunlar ham ishlamaydi. Ma'naviy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri – odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishdan iborat.

Ma'naviy tarbiyada tarixning o'rni kattadir. Tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tarix bugungi kunda millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib, odamlarning ongiga demokratik qadriyatlarni singdirishga xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Tarix axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylandi. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omilidir.

Markaziy Osiyo tarixida ma'rifiy va ma'naviy jasoratni, diniy va qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan. Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar va xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning boy ma'naviy meroslari hozirgi kunda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Fuqarolik jamiyati iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslarining mohiyatiga e'tibor qilsak, barchasida erkinlashtirish g'oyasi ustuvorlik qilganligini ko'ramiz. Demak, fuqarolik jamiyatining muhim belgisi bu ijtimoiy - siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdir.**

Demokratik tamoyillarning ustuvorligi va fuqarolik jamiyati elementlarining o'rnatilib borishi bilan fuqarolarning huquqlari ham ortib boradi. Huquqning ortib borishi esa, fuqarolar erkinligining ham o'sishiga olib keladi. Biroq, erkinlikning o'sishi esa o'z navbatida axloqsiz xatti-harakatni keltirib chiqaradi. Shu sabab fuqarolik jamiyati shakllanib borishi bilan axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi ham maqsadga muvofiqdir.

Biror-bir davlat o'z taraqqiyotini ijtimoiy nazoratlarsiz tasavvur eta olmaydi. Fuqarolik jamiyatiga o'tishda esa, ijtimoiy nazoratchi bo'lgan huquqning roli nisbatan pasaya boshlaydi. Birobarin jamiyatning jipsligi va taraqqiyotini ta'minlaydigan ikkinchi ijtimoiy nazoratchi bo'lgan axloqning roli ortib borishi lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun qonuniy barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Hamma gap endi odamlar ongiga demokratik g'oyalarni singdirishga bog'liq. Chunki bizda hozirgi kunda demokratiyaning shakli yaratildi. Endi uning mazmunini yaratmoq kerak. Bu esa odamlar dunyoqarashining rivojlanishi va hayotga ongli munosabatda bo'lishini taqozo etadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005 yilning

28 yanvarida Parlament qo'shma majlisida ma'ruza qilib: «odamlar ongiga demokratik qadriyatlarni singdirish»<sup>15</sup> asosiy vazifa ekanligini takror-takror aytganligini eslash lozim.

Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axloqni muhofazalashda o'z-o'zini boshqarish organi bo'lgan mahallaning o'rnini muhim. Chunki mahallada asrlar davomida odamlar o'rtasidagi munosabatlar aynan axloq, urf-odat, an'ana asosida tartibga solinib, nazorat qilib kelindi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatiga o'tishda mahallaning ta'sirining ortib borishi va hokimiyat vakolatlari bir qismining mahallalarga o'tkazilishi, albatta, ijtimoiy axloq negizida ma'naviyatning kuchayishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy axloqqa rioya qilish qonunda belgilangan tartibga ko'ra, jismonan jazolash bilan emas, balki ma'nan ta'sir etish yo'li bilan kafolatlanadi. Axloqqa rioya qilish ya'ni har bir odam o'zini-o'zi nazorat qilishiga asoslangan bo'lib, u imon, insof degan ichki nazoratga bog'liq. Bunday tamoyillarga asoslanish esa ko'proq odamlarning tarbiyasiga va ayniqsa, diniy tarbiyaga bog'liqdir. Chunki din shunday qudratli kuchga egaki, u odamlarning ichki hissiyotlar asosida o'zini-o'zi nazorat qilishini ta'minlay oladi. Buning uchun unga tashqi ta'sir, ma'nan va jismonan ta'sir qilish zarur bo'lmay qoladi.

Ijtimoiy axloqning shakllanishi tarbiya jarayoniga, diniy tarbiyaga ham asoslanadi. Bu xususida O'zbekiston rahbari I.A.Karimov shunday yozadi: «Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axlokiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz»<sup>16</sup>

Axloq tushunchasining mohiyati va tamoyillarini o'rganadigan fan axloqiy me'yorlarning yuzaga kelishini tekshiradi, izohlab beradi, inson hulqini axloqiy talablar nuqtai nazaridan baholash mezonini ishlab chiqadi. Axloq tushunchasiga ilmiy ta'rifni falsafiy ta'limot bo'lgan etika fani quyidagicha beradi: axloq odamlarni jamiyatda o'zini tutishiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga doir talablarning yaxlit yig'indisi. Axloq jamiyatni tartibga soluvchi sifatida boshqa

---

<sup>15</sup> Каримов.И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. Маърифат, 2005 йил, 29 январ, 2-бет.

<sup>16</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент «Ўзбекистон», 1997й. 44 бет.

nazoratchi bo'lgan huquqdan shunisi bilan farq qiladiki, huquqiy me'yorlarni zarur bo'lganda davlat majburiyati yo'li bilan bajaradi, axloqiy me'yorlarga rioya qilish esa jamoatchilik fikri, ko'proq mahalla ta'siri bilan bajartiriladi.

Demak, axloqqa rioya qilishni ta'minlovchi kuch – bu avvalo jamoatchilik fikridir. Ammo axloq faqat jamoatchilik fikri bilan mavjud emas. Odamning tabiiy tuyg'ulari va tarbiya jarayonida shakllangan burch hissi muayyan axloqiy xatti-harakatga olib keladi. Axloqiy me'yorlar yoki tamoyillar odam ongida buyruq shaklida paydo bo'ladi va kishilarni ezgu ishlar qilishga undaydi; yovuzlikdan, razolatdan asraydi. Bunday buyruqlar «Tuhmat qilma», «Yolg'on so'zlama», «O'zgalar taqdiriga befarq bo'lma», «Boshiga kulfat tushgan odamga yordam ber», «Zaif, nochor odamlarni qo'llab-quvvatla» va kabilar bo'lishi mumkin. Ammo ushbu buyruqlar qandaydir tashqi ta'sirdan emas, balki insonning e'tiqodidan, ichki sabablar asosida kelib chiqishi lozim. Masalan, «Tuhmat qilma» degan buyruqda bir odam boshqa odamga tuhmat qilmasligiga ijtimoiy zarurat borligini anglab yetishi kerak. Agar odamlar o'rtasida tuhmat, yolg'on gapirish ko'paya borsa, bunday jamiyat boshqarib bo'lmaydigan son-sanoqsiz ziddiyatlardan iborat bo'lib qoladi va muqarrar halok bo'ladi. Shu o'rinda Muhammad payg'ambar (a.v.s.)ning quyidagi hadislarini eslash lozim. Hadisda shunday deyiladi: «Shariatga qarshi borish, ota – onaga itoat qilmaslik va yolg'on gapirish, tuhmat qilish gunohi azimdir»<sup>17</sup>.

Demak, axloqiy tamoyillar kishi ongida buyruq shaklida paydo bo'lib, o'sha buyruqni bajarish uchun ijtimoiy zarurat borligini anglatadi. Ammo biz bu zaruratni burch sifatida idrok etib, shu ishdan ko'zlangan maqsadni qabul qilamiz va ma'qullaymiz, unga yetish uchun harakat tayyorligimizni bildiramiz. Shunday qilib, axloqiy me'yorlar odamning xatti-harakatini faqat obyektiv qoidalar bilangina emas, balki burch, vijdon talablari bilan ham tartibga solib turadi.

Yana ta'kidlash joizki, axloqiy xatti-harakat insoniy jamiyati taraqqiy etib borishi bilan boyib boradi va shuning uchun axloq har doim ham rasm bo'lgan qoidalarga bo'ysunavermaydi. Burch tuyg'usidan kelib chiquvchi tashabbuskorlik,

---

<sup>17</sup> Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. Т.4.Тошкент, 1992 йил. 80 бет.

yengilikka intilishlik yoki qahramonona xatti-harakat yangi fikrni, ya'ni axloqiy mezonni vujudga keltirishi mumkin. Masalan, Milliy istiqlol g'oyasining inson qalbiga singdirilishi yurt tinchligi, unda Vatan ravnaqi va xalq farovonligi maqsadida xizmat qiladigan mas'uliyatni shakllantirishi mumkin. Bu mas'uliyat fuqarolar, odamlarda, ayniqsa, yoshlarda o'tmish ajdodlari va kelajak avlod oldida javobgarlikni, burchni his qilish tuyg'usini hosil qiladi. Bunday burch esa odamlarni jamiyat manfaati yo'lida fidokorona xatti-harakatlarga undaydigan ma'lum bir axloqiy me'yorlarni yuzaga keltiradi.

Har bir davrning xususiyatiga mos ijtimoiy axloq tamoyillari bo'ladi. Chunki insonning ma'naviy mohiyati turlicha talqin qilinadi va shunga muvofiq keladigan axloqiy tamoyillar ilgari suriladi. Masalan G'arb mamlakatlari axloqining asosiy tamoyillari egoizm (xudbinlik) va individualizm (yakkalik)dir, chunki ular inson o'zining tabiiy mohiyatiga ko'ra egoist-xudbin, faqat shaxsan manfaatdor bo'lganligi uchungina jamiyatga yaxshilik qilishga qodir degan qoidaga asoslanadi. Sharq mamlakatlarida esa, ijtimoiy axloq boshqa tamoyillarga, ya'ni altruizm va jamoaviylik tamoyillariga asoslangandir. Biz hozir G'arb va Sharq axloqiy tamoyillari xususiyati to'g'risida munozaraga kirishmasdan ko'pchilik davlatlar tomonidan tan olingan tamoyillarning mavjudligini ta'kidlaymiz. Ular quyidagilar: har bir insonning millati, dini, irqidan qat'iy nazar uni unikal deb hisoblash; inson qadr-qimmatining ustuvorligini tan olish; shaxsiy bilan jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish; kishining to'la ozodligini amalga oshirish; inson hayotini farovon qilishga intilish; o'zgalar taqdiriga befarq bo'lmaslik va boshqalar. Ushbu tamoyillarga rioya qilish umumiy maqsad bo'lgan farovon jamiyatning va har bir kishining baxt-saodatga erishishini ta'minlaydi. Ijtimoiy axloqni o'ziga xos xususiyati jamiyat a'zolarini yagona maqsadga – farovon jamiyat qurishga tayyorlashdan iboratdir.

Insoniy jamiyatning turli davrlarida zamon mohiyatidan kelib chiqib, axloqiy tamoyillar ham o'sha davrga mos bo'lgan. Biroq shunday bo'lsa ham, barcha zamonlar, millatlar, irqalar va barcha tuzumlarga mos keladigan axloqiy tamoyil bo'lishi mumkin. Masalan «mening yaqinlarim manfaati, mening shaxsiy

manfaatimdan muhimroqdir» degan axloqiy tamoyil turli davrlardagi barcha jamiyatlarga taalluqli. Chunki bu tamoyil hayot mazmuniga asoslangan. Hayot mazmuni esa, barcha zamonlarda bir xil bo'lgan, ya'ni hayotning davomiyligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Hayotning davomiyligini ta'minlash esa o'zgalarning, yaqinlarning manfaati muhimligini tan olishni taqozo etadi. Bundan tashqari o'zingiz o'ylab ko'ring, biz har birimiz xudbin bu yomon, yovuz odam yaxshi odam esa avval boshqalar to'g'risida, so'ngra o'zini o'ylaydigan odam deb hisoblaymiz. Biologik jihatdan qaraganda «men» bu alohida zot, «yaqinlar» esa barchani, ya'ni turni bildiradi. Biologik nuqtai nazardan esa turni saqlab qolish hayot mazmunini anglatadi. Boshqa tomondan yakkashaxs faqat jamiyatning, umumiylikning qismi sifatidagina mavjud bo'ladi. Bunda umumiylik individsiz mavjud bo'lishi mumkin, u esa umumiyliksiz mavjud bo'la olmaydi.

Darvoqye, qadim zamonlardan mavjud «Nima uchun taqvodor odam baxtsiz, razil odam baxtli?» degan savolning javobi ham aynan shunda yotibdi. Alohida odamning baxti muhim emas, balki «mening yaqinlarim» deb atalgan odamlar jamoasining baxti muhim ahamiyatga ega va aytish kerakki, o'sha kam sonli taqvodorsiz odamlar jamoasi ham halok bo'lishi mumkin. Insoniylik jamiyati, tabiati shunday yaratilganki, faqat ayrim odamlar taqvodor bo'ladilar, aks holda insoniyat o'zini-o'zi qirishi mumkin. Insonni taqvodor qiladigan tug'ma kuch bu vijdon va imondir. Insoniyat jamiyati mavjud bo'lishi uchun faqatgina ayrim odamlar taqvodor bo'lishlari yetarlidir. Shuning uchun «yaqinlarimning manfaati, mening manfaatimdan muhimroqdir» degan axloqiy tamoyil barcha davrlarda barcha xalqlarga taalluqli bo'ladi. Aynan ana shu axloqiy tamoyil boshqalari asosini tashkil qilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Insoniyat jamiyati o'zining keyingi mavjud bo'lishini ta'minlash uchun ma'lum bir axloqiy me'yorlarga asoslanishi lozim. Inson o'zining faoliyatida ma'lum bir chegaralarga rioya qilishi zarur. Ana shu chegaralarni buzmaslik axloqiy qoidalar orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan sharoitda odamlar o'rtasidagi munosabat o'zaro ishonchga, imonga asoslangan bir paytda axloqiy me'yorlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu

o'rinda Payg'ambar Nuh davrida insoniyatning qirilishiga aholining axloqsizligi sabab bo'lganligini eslash lozim.

Donishmandlarning aytishicha, insonning xarakatlari ostida o'zini-o'zi qirish xavfi yashirinib yotar va u anglamagan holda o'ziga qarshi harakat qilar ekan. Bunday xavfni kamaytirish tarbiya jarayoniga bog'liq. Chunki tarbiya insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun kerak bo'lgan ijtimoiy axloqni va ma'naviyatni shakllantiradi. Ana shu axloq insonning o'z xatti-harakatida me'yordan, chegaradan chetga chiqmasligini ta'minlaydi. Har qanday xarakatning, extiyojning o'z chegarasi, me'yori bo'lishi kerak. Chegaraning buzilishi axloqsizlik va ma'naviy buzuvchilikni keltirib chiqaradi. Bu esa har qanday jamiyat uchun xalokatlidir. Buning oldini olish uchun nafaqat davlat, balki butun jamiyat va har bir fuqaro me'yori, chegara buzilishiga nisbatan befarq bo'lmasdan, daxldorlik hissi bilan yashashi lozim.

Demak fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti – bu befarqlik kayfiyatidan xalos bo'lib, daxldorlik hissi bilan yashashdir. Befarqlikni bartaraf qiladigan va daxldorlik hissini shakllantiradigan kuch – bu milliy g'oyadir. O'zbekiston fuqarolari dini, irqi, millatidan qat'iy nazar bir-biriga nisbatan befarq bo'lmasligi kerak. Bir fuqaroning boshqa fuqaroga befarq bo'lishi millatga nisbatan befarqlikni anglatishi mumkin. Buning uchun milliy g'oya odamlar qalbidan joy olgan bo'lishi kerak. Ana shunda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladigan eng muhim omil, ya'ni fuqarolik munosabati shakllanadi. Milliy g'oyaning odamlar qalbiga singdirilishi odamlardagi befarqlik kayfiyatiga barham berib, daxldorlik hissini shakllantiradi. Bu esa fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik davlatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Chunki jamiyatni tartibga soluvchi bo'lgan axloq o'z-o'zidan shakllanmaydi. Biz doimo boy ma'naviy merosimizni, urf-odat, an'analарimizni zamon talablaridan kelib chiqib boyitib borishimiz lozim. Ana shunda biz fuqarolik jamiyati sharoitida yashay oladigan yetuk fuqarolik munosabati shakllangan va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishilarga ega

bo'lamiz. Bu esa ozod, obod farovon jamiyat qurishning muhim omilidir.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan fuqarolik jamiyatining shakllanishida va xalqimiz hayotini farovon qilishda yuksak ma'naviyat asosiy me'zon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatning shakllanishida esa axloqiy tarbiya asosiy omildir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridagi g'oyalarning mazmun-mohiyatini odamlar ongiga va qalbiga singdirish bosh maqsadimiz bo'lgan farovon jamiyatni qurishga xizmat qiladigan yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi manba bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz. Chunki asarda ma'naviyatning ma'no-mazmuni, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati to'liq yoritib berilgan. Buni ma'naviyatga berilgan tugal ta'rifdan ham ko'rsak bo'ladi: **«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»<sup>18</sup>.**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qodir, yetuk ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan xalq va lider mavjuddir.

---

<sup>18</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т. 2008й 19-бет.

Фуқаролик жамияти

Инсон ҳаёт фаолияти шарт-шароитларини таъминлайдиган шахс, ижтимоий гуруҳлар хилма-хил эҳтиёж ва манфаатларини қондирадиган ва амалга оширадиган ижтимоий муносабатлар, расмий ва норасмий структуралар мажмуи.

Асослари

Иқтисодий

Кўп укладли иқтисод

Мулкчиликнинг хилма-хил шакллари

Бошқариладиган бозор муносабатлари

Сиёсий

Ҳокимият ваколатларини децентрализацияси

Ҳокимиятни тармоқларга бўлинганлиги

Сиёсий плюрализм

Фуқароларнинг давлат ва жамият ишларида иштирок этиш ҳуқуқи

Қонун устиворлиги ва барчанинг қонун олдида тенглиги

Маънавий

Бир мафкура ва дунёқараш монополиясининг йўқлиги

Виждон эркинлиги

Цивилизацияланган-лик, юксак маънавият ва ахлоқийлик

# Маънавият

Маънавият моҳияти – руҳий, ахлоқий ва интеллектуал манфаатларнинг моддий манфаатлардан устунлигига асосланган қалб хусусияти

Маънавият таърифи – инсоннинг руҳий покланиш, қалбий улғайишга чорлайдиган, одамни ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-эътиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган беқиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир.

## Асослари

Маънавий мерос,  
маданий бойликлар,  
кўҳна тарихий  
ёдгорликлар

Оиланинг ўрни ва  
таъсири

Таълим-тарбия тизими

Маҳалланинг роли ва  
таъсири

## Xulosa

Davlat hokimiyati tizimi, jamiyatning iqtisodiy asoslari va siyosiy-huquqiy munosabatlar demokratik islohotlarning va mamlakatni modernizasiya kilishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bilan birga, amalga oshiralayotgan muhim islohotlar jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarning yanada rivojlanishiga, demokratik o'zgarishlarning chukurlashtirilishiga, umuminsoniy ne'matlarni, birinchi navbatda, shaxs, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini va boshka ajralmas tabiiy hukuklarini muhofaza qilish kafolatlarining kuchaytirilishiga ta'sir qiladi va ular uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisida Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011 yil ostonasida turibmiz, tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o'tgan davr mobaynida xalq hayoti sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmokda<sup>1</sup>. Qisqacha aytganda, biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifati yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" deb nomlangan dasturiy ahamiyatga ega ma'ruza-sida amalga oshirilgan islohotlar natijalari quyidagi oltita ustuvor yo'nalishlarga ajratilgan holda, chuqur tahlil qilindi:

Shu bilan birga, Prezident tomonidan alohida ta'kidlanganidek: «Erishilgan

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь - Т.: "Ўзбекистон", 2010. 3-б.

bunday marralar — barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari soʻzda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan, jahon miqyosida obroʻ-eʻtibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz oʻz oldimizga qoʻygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yoʻlning bir qismi, xolos»<sup>1</sup>.

Konsepsiyada belgilangan 6 ta ustuvor vazifa, Prezidenti-miz taʼbiri bilan aytganda, mamlakatimizni isloh etish va modernizasiya qilish yoʻlidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishda, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga koʻtarishda kuchli omil boʻlib xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan belgilangan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" butun jahon miqyosida juda katta eʻtibor qozondi. Xususan, Malayziyaning Oʻzbe-kistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Abdulaziz bin Xarun taʼkidlaganidek: "Ushbu Konsepsiya nafaqat Oʻzbekiston xalqi, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham keng qoʻllab-quvvatlanmoqda. Uning amalga oshirilishi mamlakatimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan mustahkam joy olishida muhim omilga aylanishi, shubhasiz.

Yuqorida koʻrsatilgan vazifalarning izchillik bilan bosqima-bosqich amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati qurish yoʻlidagi erishilgan yutuqlarni mustahkamlash va bu boradagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu oʻz navbatida inson huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilish, qonun ustuvorligi prinsipiga ogʻishmay rioya etilishini taʼminlashga koʻmaklashadi.

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қоиунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь - Т.: "Ўзбекистон", 2010. - Б. 8-54.

Давлат ҳокимияти тизими, жамиятнинг иқтисодий асослари ва сиёсий-ҳуқуқий муносабатлар демократик ислохотларнинг ва мамлакатни модернизация қилишнинг ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади. Шу билан бирга, амалга оширалаётган муҳим ис-лохотлар жамият ҳаётида ижтимоий муносабатларнинг янада ривожланишига, демократик ўзгаришларнинг чуқурлаштирилишига, умуминсоний неъматларни, биринчи навбатда, шахс, унинг ҳаёти, эркинлиги, кадр-қиммати ва бошқа ажралмас табиий ҳуқуқларини муҳофаза қилиш кафолатларининг кучайтирилишига таъсир қилади ва улар учун зарур шароитларни яратади. Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисида Президент И. Кари-мов таъкидлаганидек, Ватанимиз мустақиллигининг 20 йиллиги нишонланадиган янги 2011 йил остонасида турибмиз, тарихимизга кириб келаётган бу буюк марра муносабати билан ўтган давр мобайнида халқ ҳаёти сифати, мамлакатимиз қиёфаси қандай ўзгариб бораётгани, қандай ютуқ ва натижаларга эришганимиз, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган очиқ демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлида қандай суръатлар билан ривожланиб бораётганимизни баҳолаш эҳтиёжи туғилмоқда<sup>1</sup>. Қисқача айтганда, биз ўз олдимизга қўйган узоқ муддатли стратегик мақсадлар, яъни замонавий ривожланган демократик давлатлар қаторига кириш, иқтисодиётимизнинг барқарор ўсишини таъминлаш, ҳаёт сифатини яхшилаш ва жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаш борасидаги саъй-ҳаракатларимизга бугунги кун нуқтаи назаридан ҳолисона баҳо беришимиз табиийдир.

Узбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш

' И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent. 2008 yil.
2. Karimov I.A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997 yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008 yil.
4. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. 2005 yil 8 fevralda Vazirlar mahkamasidagi yig'ilishdagi ma'ruzalari. Xalq so'zi. 2005 yil, 9-fevral.
5. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimiz. 2010 yil, 27 yanvar parlamentning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2010 yil, 28 yanvar.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Xalq so'zi. 2010 yil 13 noyabr.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir // Toshkent: O'zbekiston, 2010y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2010 y 25 iyun // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining veb-sayti – [WWW.press-servic.Uz](http://WWW.press-servic.Uz).
11. 6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011.
12. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent 2012 y.
10. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalashda siyosiy partiyalarning rolini oshirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonun. 2008 yil 1 yanvar.
11. Muxayev R.T. Politologiya. Moskva 1997g.

12. Danilo J. Markovich. *Общaya sosiologiya*. Moskva 1998g.
13. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matubotning o'rni. // *Demokratlashtirish va inson huquqlari*. – 2006. - №2. –B. 37-40.
14. Bafayev Sh. Jamoatchilik nazorati demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili sifatida. // *Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari*. – 2007. - №1 – B. 67-69.
15. Berdiyarov Sh. Parlament nazorati rolini oshirish omillari // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. – Toshkent.
16. Odilqoriyev X. Parlament nazoratining mohiyati va asosiy shakllari // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. - Toshkent: 2005. –B.25-37.
17. Ostonov S. Parlament so'rovi – muhim institut // *O'zbekiston ovozi*. - 2007. - 8 iyul.
18. Rajabova M. Senatning qonunlar ijrosi bo'yicha nazorat faoliyati // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. –Toshkent: 2005.- B.84-89.
19. Ro'zinazarov Sh. Parlament nazoratini tashkiliy ta'minlashning konstitusiyaviy asoslari // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. –Toshkent: 2005.-B.69-77.
20. Fayziyev Sh. Parlament nazoratining tushunchasi va asosiy yo'nalishlari: huquqiy ta'minlash masalalari // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. –Toshkent: 2005. –B.13-25.
21. Qiyomov M. Qonunchilik nazorati: adolatli va maqbul yo'l bo'lgani bois muhim ahamiyatga ega // *Jamiyat*. -2010. – 9 aprel.
22. Qurbonova D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitalari tomonidan nazoratni amalga oshirish tartibi // *Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari*. – Toshkent: 2005. –B.89-93.

23.Hamidova K. Qonunchilik palatasining nazorat faoliyatini amalga oshirishda siyosiy partiyalar fraksiyalarining o'рни // Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent: 2005.- B.108-114.

24.Nabiyev F.X. O'zbekiston siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarda jamoatchilik nazoratini ta'minlash va takomillashtirish. // Fuqarolik jamiyati. 2010 yil, 3-son.

25.Nabiyev F.X. Siyosiy faollik. «Zarafshon». 2008 yil, 18 mart.

26.Nabiyev F.X. Yuksak axloqiylik. «Zarafshon». 2008 yil, 8 avgust.

27.Nabiyev F.X. Siyosiy madaniyat. «Zarafshon». 2008 yil, 25 dekabr.

28.Nabiyev F.X.Fuqarolik jamiyatini qurishda ma'naviyatning o'рни. «Zarafshon». 2009 yil, 26 fevral.

29.Nabiyev F.X.Demokratiya va barqarorlik saylov tizimi xarakteri bilan belgilanadi. «Zarafshon». 2009 yil, 20 iyun.

30.Nabiyev F.X. Siyosiy saboq. «Zarafshon». 2009 yil, 8-sentyabr.

31.Nabiyev F.X. Demokratiya va oshkoralik sharti. «Zarafshon». 2009 yil, 24 sentyabr.

32.Nabiyev F.X. Jamoatchilik va parlament nazorati hamda deputatlik korpusi ishini takomillashtirish. «Zarafshon». 2009 yil, 12-dekabr.

33.Nabiyev F.X.Deputatlik mavsumiy ish emas. «Adolat». 2010 yil, 5 fevral.

34.Nabiyev F.X. Yuksak ma'naviyat va yetuk siyosiy madaniyat. «Mahalla», 2010 yil, 29 aprel.

35.Nabiyev F.X. Demokratiya va tartib intizom qat'iy nazoratni talab qiladi. «Zarafshon». 2010 yil, 27 may.

36.Nabiyev F.X. Demokratik tamoyillar mezoni yoxud siyosiy partiyalar dasturiy hujjatlarida jamoatchilik nazorati masalalari. «Zarafshon». 2010 yil, 31 iyul.

37.Nabiyev F.X. Siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurash nazorat borasida bo'lish lozim. «Adolat». 2010 yil, 20 avgust.

38. Nabiyev F.X. Obespecheniye i sovershenstvovaniye obshchestvennogo kontrolya v programmnykh dokumentax politicheskix partiy Uzbekistana. Fuqarolik jamiyati. Toshkent. 2010 y. 66-70 betlar.